



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR



VATAN HIMOYASI –

BUYUK JASORAT!



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 13-MART
№11 (3177)



Amir Temur tavalludining 690 yilligiga

AMIR TEMUR O'YNAGAN XALQ O'YINLARI

Amir Temurning bolaligi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida kechgan (1360-yilga qadar). U bolaligidan turli xalq o'yinlari: "kurash", "ko'pkari", "oq suyak", "churr-kes", "poyga", "tosh ko'tarish", "podshoh-podshah", "taka lov-lov" va boshqalar bilan shug'ullanadi. Mazkur xalq o'yinlarining aksariyati Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayrimlari hozirgacha turkiy xalqlar etnografiyasida bor.

Amir Temur davrida xalq o'yinlari harbiy tayyorgarlik, strategik fikrlash va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida muhim rol o'ynagan. Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonning an'anaviy xalq o'yinlari – kurash, ko'pkari, poyga, shaxmat va boshqalar bugungi kunda ham milliy sport va madaniy bayramlarda saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyoda xalq o'yinlari qadimdan harbiy mashqlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Oilada o'g'il farzand tug'lsa, u go'dakligidan boshlab turli xalq o'yinlarini o'ynab ulg'aygan. Xalq o'yinlari o'zining xususiyatlariga ko'ra, shartli ravishda go'daklikda, bolalik yoshida, o'smirlikda va yigitlik yoshida o'ynaladigan jismoniy va aqliy o'yinlarga bo'linadi. Turli yosh davrlarida o'ynaladigan o'yinlar o'zining og'ir-yengilligi, xavfli-xavfsizligi bilan alohida ajralib turgan. Masalan, go'daklikda asosan kamchilik bilan, bolalik yoshida tengdosh bolalar bilan, o'smirlikda va yigitlik yoshida saralanganlar bilan o'yinlar o'ynalgan.

AMIR TEMUR o'z lashkarlarini tayyorlashda jismoniy va aqliy mashqlardan foydalangan. Masalan, u shatranj (*shaxmat*) o'yinini yaxshi ko'rgan va bu o'yin uning strategik fikrlashini rivojlantirishga yordam bergan. Amir Temur o'zi shaxmatning kengaytirilgan versiyasini ixtiro qilgan, unda doska kattaroq va figuralar soni ko'proq bo'lib, bu "Temur shaxmati" nomi bilan mashhur. Bu o'yin nafaqat o'yin-kulgi, balki harbiy taktikani o'rgatish vositasi sifatida ishlatilgan, chunki u murakkab harakatlar va rejalashtirishni talab qiladi.

Temurbek tengqurlari bilan shu o'yinni ko'p o'ynar, uning rosa mashqini olgan ekan. O'yinda besh-olti tengqur bola qalpog'i yoki telpagini birdaniga osmonga tikka otadi. Kimning qalpog'i yoki telpagi eng balandga otilsa, o'sha bola "podshoh", ikkinchi balandi "vazir", undan pastrog'i "jallod", qolganlar esa "fuqarolar" bo'ladi. Bu o'yinda ham Temurbek qalpog'ini eng balandga otib, doimo "podshoh" bo'larkan.

"Podshoh" toshaxtda o'tirib, "vazir"dan el-ulus ahvolini so'raydi. "Vazir" shu kunlarda el-ulus tinch-osoyshtaligi, ammo bitta-ikkita buzg'unchi isyonchi borligi, bu "gunohkorlar" tutib keltirilgani haqida "podshoh"ni ogoh etadi. "Podshoh", "vazir", "jallod" yonlarida yo'nilgan qilich taqib olishadi. Shunday o'yinlarning birida Temurbek taxtida podshoh bo'lib o'tirgan bir pallada "jallod"ga "gunohkor"ning "boshini kesish"ni buyuradi. "Jallod"ning qo'lida zanglagan rasmana qilich bo'lib, u qilichining orqasi bilan "gunohkor"ning boshini kesib tashlaydi. Shu payt o'yin qoidasiga muvofiq "gunohkor" yerga yiqilib, jon talvasasida o'lmog'i lozim edi. Ammo bu safar "gunohkor" yiqilmay, "podshoh" va "jallod"ga qarab tirjayib turaveradi. "Podshoh"ning jahli chiqib: "Gunoh ish qilding, boshing kesildi! Nega jon talvasa qilmay, o'lmay, baqrayib turibsan?" deydi. Shunda gunohkor: "Sening amringga bo'ysunishni xohlamayman, sen haqiqiy podshoh emassan!" deb javob qaytaradi. Jahli chiqqan Temurbek: "Hali shunaqami, to'ra-tuzukka qarshimisan, podshoh amriga bo'ysunmaganning moli talovda, joni jahannamda", deydi. "Gunohkor" bola battar mag'rurlanib: "Nima desam ham sendek o'yinchoq podshohga itoat etmayman", deganida Temurbek "jallod"ning qo'lidan zanglagan qilichini tortib olib "gunohkor"ning bo'yniga soladi. Qilich "gunohkor"

bolaning bo'yin va yuzlarini kesib yuborganidan qon sizib chiqib boshlaydi...

Amir Tarag'ay Bahodir o'g'lining bu nojoiz ishidan keyin haligi "gunohkor" bolaning otanasidan ko'p uzr so'rab, ularga ko'p mol hadya qilib, Temurbekning gunohini so'rab oladi...



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



"TAKA LOV-LOV" O'YINI

Bu o'yinda yigirmatacha bola diametri o'ttiz metrcha keladigan maydonda davra qurib o'tirishadi. Ularning orasidan besh-oltita bola ikki guruhga bo'linib, bir guruhi doira – "qo'rg'on" ichidagi "o'rda"ni bir oyoqda "lov-lov"lab qo'riqlashadi, ikkinchi guruhi esa "o'rda"ga hujum qiladi. **Bir oyoqda lov-lovlab yuruvchi qo'riqchilar hujumchilarni oyoq bilan tepib "asir" olishar, tushganlar esa o'rdaga zindonband qilinlar, ya'ni o'rtaga o'tirg'izib qo'yiladi.** Bu o'yin ikki uch-soat davom etgan. Mudofaachilar bir oyoqda takaga o'xshab sakrab yurganlari uchun o'yin "Taka lov-lov"deb atalgan.

Temurbek guruhi doimo hujumchilar bo'lib qatnashgani rivoyat qilinadi. Ulardan hech kim asir tushmas, o'rdani mohirlik bilan tez egallab olisharkan. Natijada, qo'riqchilar lov-lovlab yugurib, charchab o'rdani tashlab qochishga majbur bo'larkan.



OLISH-OLISH (KURASH) O'YINI

Amir Temurning bolalik davrida ham Xo'ja Ilg'or mavzesidagi qishloqlarda polvonlik o'yini – olish (*kurash*) mashhur bo'lgan. Bu haqda Temuriylar davri asosiy manbalarida ham, XVIII-XIX asrlarga oid forsiy va turkiy tillardagi "Temurnoma" asarlarida ham eslatilgan.

RIVOYATLARGA KO'RA, u 10-11 yoshga yetganida qo'shni qishloqda katta to'y bo'ladi. To'yda, an'anaga muvofiq katta polvonlardan oldin yosh bolalarning kurashi uyushtiriladi. Shu to'yda Temurbek o'z tengdoshlaridan o'ntacha bolani yiqitadi. Yig'ilganlarning ko'pchiligi to'y bo'layotgan qishloq bolalari edi. Bunga to'y egasi – oqsoqolning o'n besh yashar o'g'lining hamiyati kelib davraga tushadi. Bakavul avvaliga 10 yashar Temurbek bilan 15 yashar oqsoqol o'g'lining kurash tushishiga qarshi bo'ladi. Ammo Temurbek "kurash

tushaman!" deb davrani xuddi katta polvonlardek aylanishidan keyin ko'pchilik "mayli, olishsin" deb hayqirishlaridan kurashga rozilik beradi va kurash boshlanadi. Shunda Temurbek o'zidan besh yosh katta bolani yelkasidan oshirib otadi. Bundan to'y egasi oqsoqol, bakavul va boshqalar izza bo'lib qolishadi.

To'y olish-kurashi tugab, hamma uy-uyiga tarqaladi. Temurbek tengqurlari bilan Xo'ja Ilg'orga qaytib kelayotsa, bir guruh barzangi bolalar ularning yo'lini to'sadi. Oqsoqolning o'g'li alamidan 3-4 ta bolani ishga solib fitna uyushtirgan ekan. Ikki o'rtada mushtlashish boshlanib ketadi. Barzangi bir o'smir Temurbekning oyog'iga tayoq bilan uradi va sindiradi. Shundan so'ng Temurbekning oyog'i oqsoqlanib yuradigan bo'ladi (*Aslida, Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma" asarlarida Amir Temurning oqsoqlanib qolishi Seyiston jangida sodir bo'lgani ta'kidlanadi. Bu jangda uning o'ng oyog'i va o'ng yelkasiga bexosdan o'q tegib, jarohat oladi va shu jarohat tufayli umrining oxirigacha oqsoqlanib qoladi. Bu to'g'rida "Temur tuzuklari"da shunday qaydlar keltiriladi: "Seyiston voliysi va'dasiga vafo qilmagani uchun ilojisiz yo'llarini to'sib, jang-u jadalga kirishdim. Shu payt bir o'q kelib bilagimga qadaldi, yana biri oyog'imga tegib yaraladi... O'sha viloyatda yaralarim bitguncha ikki oycha turib qoldim").*

MANBALARDA Amir Temurning oqsoqlanib qolishiga Seyiston jangida olgan jarohatlari sabab bo'lgani aytilsa, yuz yillar mobaynida og'izdan og'izga o'tib kelayotgan xalq rivoyatlarida bu bolalikda olgan jarohati sabab qilib ko'rsatiladi. Nima bo'lganda ham, Amir Temur bolaligidanoq olish-kurashda mohir polvonlardek kuchli va epcil bo'lgani ko'plab rivoyatlarda uchraydi.



"POLVONTOSH" KO'TARISH

Hozirgi kunga qadar "Xo'ja Ilg'or ota" qabristonida, buzrukvorning qabrlariga yaqin supada "ilohiy" qudratga ega bo'lgan "Polvontosh" saqlanib qolgan. Ko'kimtir rangda, to'rtburchak, sal uzunchoq yo'nilgan bu toshning og'irligi 6 pud (96 kg)dir.

RIVOYAT QILISHLARICHA, Temurbek o'spirinlik yillaridanoq "Polvontosh"ni shu yerdan tepalikkacha olib chiqib, tushar, hatto bemalol u qo'ldan bu qo'lga olib o'ynatar ekan. Ammo "Polvontosh"ni ko'tarish o'sha paytlarda ham, hozir ham barchaga nasib bo'lavermaydi. Hayit kunlarida yigitlar "Polvontosh"ni ko'tarishadi. Ammo manaman degan polvonlar bu toshni yerdan uzolmagan paytlar ham bo'ladi. Rivoyatlarda keltirilishicha, kimki yuragida e'tiqodi mustahkam bo'lsa, pok yursa, halol luqma bilan kun kechirsa, o'sha kishiga "Polvontosh"ni ko'tarish nasib bo'larkan.

Amir Temur nomi bilan bog'liq xalq o'yinlari Markaziy Osiyo madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, ular harbiy strategiya, jismoniy tayyorgarlik va ijtimoiy birlikni ta'minlagan. Bu o'yinlar nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Sevinch ULASHOVA,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori



Ibrohim Orifxon o'g'lining ota-bobolari asli turkistonlik bo'lib, taqdir taqozosi bilan Toshkentga ko'chib kelgan. Qahramonimiz 1902-yilning 23-oktabrida ana shu azim shaharning Sebzor dahasida tavallud topgan.

Yosh Ibrohim ilk ta'limni dastlab eski, so'ngra Eshonxo'ja Xoniyning yangi usul maktabida oldi. **Uning o'zi keyinchalik xotiralarida:** *"Katta akam Obidxon meni va chor atrofdan 8 bolani mahallamizdan 4 kilometrcha uzoqlikda joylashgan Quyi Devonbegi mahallasidagi Eshonxo'ja Xoniyning yangi usuldagi boshlang'ich maktabiga yozdirdi. 1913-yilda Eshonxo'janing boshlang'ich maktabini bitirgach, Shayxontohur yaqinidagi Munavvarqorining 2 sinfli Rushdiy maktabida o'qishni davom ettirdim va 1915-yili buni ham tamomladim"*, deb yozgan. Ibrohim, Munavvarqorining ushbu maktabida tarix, matematika, geografiya, tabiatshunoslik, adabiyot va diniy ilmlarni o'rgandi.

Germaniyada tahsil olgan talabalarning hayoti va faoliyatiga doir ilk ma'lumotlarni ilmiy jamoatchilikka taqdim etgan zahmatkash olim Sherati Turdiyevning yozishicha 1917-yilgi fevral inqilobidan keyin, Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ko'plab yoshlar qatori Ibrohimning ham qalbini larzaga solgan. Ana shu davrda Munavvarqorining "Namuna" maktabini bitirgan va Fitrat domlada tahsil ko'rgan bir qancha ilmga chanqoq yoshlar kabi Ibrohim Orifxon o'g'li ham do'sti Ahmadjon Ibrohim bilan birga Turkiston davlat universitetining ma'danchilik fakultetiga o'qishga kiradi. Biroq bolsheviklar mahalliy yoshlarning chuqur bilim olishiga ataylab yo'l qo'ymayotgani, bu yo'lda turli xil sun'iy to'siqlarni hosil qilayotganligi jadid taraqqiyparvarlari tomonidan to'la anglab yetilgach, ilmga chanqoq ko'plab yoshlar qatori Ibrohim ham "Ko'mak" uyushmasi yordamida Germaniyaga o'qishga yuboriladi.

Ibrohim Yorqin 1924–1927-yillarda Berlin ziroat akademiyasida o'qidi. O'qishni tamomlagach, Berlin chorvachilik institutida biroz muddat ishlagach, 1929-yilda Vengriya dorilfununida "Turkiston jug'rofiy shaharlarida chorvachilik" mavzusida doktorlik dissertatsiyani yoqladi.

Afsuski, XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan boshlab Germaniyada tahsil olayotgan talabalarni Turkistonga qaytarish vazifasi faol tarzda sovet hukumati tomonidan zo'rlik bilan amalga oshirila boshlandi. Bu chirkir siyosatning amaliy natijasi o'laroq, 1927-yilning yozgi ta'til vaqtida yurtga qaytgan Solih Muhammad va Nasriddin Sherahmad qayta Germaniyaga qo'yib yuborilmadi. Hatto, bunga chiday olmagan Nasriddin Sherahmad o'z joniga qasd qiladi va tasodifan o'lmay qoladi.

Bolsheviklarning manfur maqsadlarini oldindan sezgan Fayzulla Xo'jayev Germaniyaga maktub yo'llab, qolgan talabalarga qanday qilib bo'lsa ham o'qishni bitirishni va yurtga qaytib kelmaslikni buyuradi. Ushbu tavsiyaga amal qilgan talabalar qatorida Ibrohim Orifxon o'g'li ham Germaniyada qolishga qaror qiladi. Biroq qahramonimiz sovet hukumatining siyosiy bosimi ostida 1930-yilda Turkiyaga ko'chib o'tib, o'ziga Ibrohim Yorqin ismini qabul qilishga majbur bo'ladi.

Ibrohim Yorqinning Turkiyadagi ilmiy faoliyati ham nihoyatda qizg'in kechdi. Natijada u 1938-yilda dotsent, 1946-yilda esa professor ilmiy unvoniga ega bo'ldi.

Garchi, Ibrohim Yorqinning mutaxassisligi chorvachilikka oid bo'lsa-da, biroq u ham boshqa maslakdosh do'stlari Tohir Chig'atoy, Abdulvahob O'qto'y va

MUHOJIRLIKDA HAM SO'NMAGAN TURKISTON DARDI:

IBROHIM YORQIN QISMATI

XX asr Turkiston ziyolilari tarixida muhojirlikda yashab, milliy tafakkur va ozodlik g'oyalarini ilmiy hamda publitsistik faoliyati orqali davom ettirgan shaxslar alohida o'rin tutadi. Ana shunday fidoyi ziyolilardan biri Ibrohim Yorqin bo'lib, u nafaqat chorvachilik sohasi bo'yicha yetuk olim, balki Turkiston jadidlik harakati tarixi va namoyandalari haqida muhim ilmiy-ma'rifiy meros qoldirgan mutafakkirdir. Uning asarlarida jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ma'rifiy faoliyati va milliy uyg'onish jarayonidagi o'rniga doir muhim ma'lumot va mulohazalar keltirilgan.

Afzal Abusaid singari qo'lga qalam olgan holda, ona Vatani Turkistonning hurriyati yo'lida kurash olib bordi. Ayniqsa, uning 1963–1988-yillar oralig'ida "Turk madaniyati" nomli Anqarada nashr etilgan oylik jurnalidagi – Turkistonning ijtimoiy-siyosiy tarixi hamda jadid taraqqiyparvarlarining hayoti va faoliyatiga oid qirqa yaqin maqolasi katta ahamiyatga ega.

Bular ichida Turkistonning tarixiy siymolari Ahmad Donish, Avaz O'tar, Abay Qo'nonboyev, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Eshonxo'ja Xoniy, Abulhamid Cho'lpon, Elbek (*Mashriq Yunusov*) va milliy ozodlik harakatining liderlaridan biri Shermuhammadbekka doir muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan maqolalar bor.

Ibrohim Yorqinning "Turkistonning jadidchi fikr arbobi, yozuvchi va shoiri Abdurauf Fitrat" nomli maqolasi ham o'zgacha xarakterga ega. Muallif ushbu maqolasida Buxoroning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy manzarasi haqida umumiy ma'lumot berib, mamlakat osmonini qoplagan jaholat bulutlarini quvmoq uchun bir qator taraqqiyparvar shaxslar yetishib chiqqanini, ularning ichida Abdurauf Fitratning o'rni va roli katta bo'lganini yozadi.

Ibrohim Yorqinning qayd etishicha, Abdurauf Fitratning modern tafakkur darajasiga erishishida Ahmad Donishning asarlari muhim ahamiyat kasb etgan, uning hali nashr etilmagan qo'lyozma holda asarlari Fitrat va boshqa ilg'or fikrli buxorolik yoshlar tomonidan qo'lma-qo'l holda o'qilgan hamda turli davralarda muhokama qilingan.

Ibrohim Yorqin o'z maqolasida Abdurauf Fitrat to'g'risida muhim ma'lumotlarni keltiradi. Uning fikricha, 1910-yilda Buxoroda yashirin tarzda tashkil etilgan "Tarbiyai atfol" jamiyati tez fursatda Istanbulda ham o'z bo'limini ochib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani Istanbulga yuborgan. Ushbu jamiyatning sa'y-harakatlari bilan ko'plab buxorolik yoshlar bilimlarini oshirish uchun Istanbulga bordilar. Ulardan biri Abdurauf Fitrat bo'lib, u 1910-yilda Eron orqali Istanbulga yetib kelgan.

Fitrat Istanbulda ilm-fan va adabiyot arboblari bilan muloqot qilib, tarix va adabiyot sohalarida bilimni chuqurlashtirgan, ta'lim va madaniyat muassasalarini, hamda siyosiy tashkilot va harakatlarning faoliyatini yaqindan kuzatgan. Istanbuldagi ilg'or ta'lim Abdurauf Fitratning ong va

tafakkurida chinakam inqilobni yuzaga keltirgan. Ana shu fikriy inqilob natijasida u fors tilida "Munozara" va "Sayyohi hindi" nomli asarlarini chop ettirgan.

Ibrohim Yorqinning Munavvarqoriga bag'ishlangan maqolasi hajman katta. Boisi Munavvarqori Ibrohimning bevosita ustozidir. Shuning uchun ham o'z maqolasida Munavvarqorining mufassal tarjimaiy holini keltirib, bu ulug' siymoning Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy tarixidagi o'rmini atroflicha tahlil qiladi.

Ibrohim Yorqinning yozishicha Buxoroda Jo'raboy ismli bir shaxs tomonidan ochilgan, biroq uch oy o'tmay yopilib ketgan maktabni istisno qilganda, yangi usul maktablarining birinchisi 1901-yil iyun oyining boshlarida Munavvarqori tomonidan Toshkent shahrining Mirobod mavzesida ochilgan. Oradan bir necha yil o'tgach, u bu maktabni o'zi tug'ilib voyaga yetgan Shayxontohur mavzesiga ko'chirgan.

Mirobodda esa Munavvarqoridan yangi usul ta'lim metodini o'rgangan Abdulla Avloniy ham jadid maktabini ochadi. Ibrohim Yorqinning eslashicha, Munavvarqori yangi maktab o'quvchilarni tez savodli qilishi va ularga foydali bilim berishini ko'rsatish maqsadida bitiruv imtihonlarini o'quvchilarning ota-onalari hamda ko'plab muxolif ruhda qadimgi din arboblari ishtirokida o'tkazgan. Mazkur boshlang'ich maktab ayni paytda keyinchalik ochiladigan boshqa yangi usul maktablari uchun ta'lim uslubi va o'quv dasturlarini amaliy tarzda o'rganish markazi vazifasini ham bajargan.

Bundan tashqari Ibrohim Yorqin Munavvarqori tomonidan ochilgan maktabda o'qituvchilik faoliyatini olib borgan shaxslar to'g'risida ham muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi. **Jumladan u:** *"O'sha davrning yosh o'qituvchilaridan Eshonxo'ja va Hasanxo'ja Xoniylar, Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Sami Qori kabi o'qituvchilar Munavvarqori maktabida birga ishlab, undan maxsus bilim va ta'lim usullarini o'rganganlar. Keyinchalik Farg'ona, Samarqand, Xo'jand, Chimkent kabi shaharlarida yangi usul maktablar ochgan ko'plab kishilar ham undan dars dasturi va metodlarni o'rgangan va maktablarni yanada samarali qilish uchun undan yordam olganlar"*, deb yozgan holda, ushbu maktab boshqa yangi usul maktablari uchun ham andaza bo'lgani sababli xalq ichida "Namuna" maktabi sifatida nom qozonganini ta'kidlaydi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Ibrohim Yorqin o'z bilimini yurt ravnaqi va rivoji yo'lida safarbar qilgan, Germaniyada o'qib o'zining maqolalari va tadqiqotlari bilan Turkistonning hurriyati yo'lida qalami ila kurash olib borgan o'zbek xalqining chinakam jasur farzandlaridan biri bo'lgan.

Ibrohim Yorqin 1993-yilda uzoq davom etgan og'ir kasallikdan so'ng Turkiyaning poytaxti Anqarada vafot etdi.

Biroq undan boy ilmiy meros qoldi. Ibrohim Yorqinning asar va maqolalari bugungi kunda ham Turkistondagi jadidlik harakati tarixi, madaniyati va ilm-faniga doir yangi qirralarni ochishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi, shubhasizdir.

Muslimbek ALIJONOV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti, PhD



Malaka

KOMANDIRLAR MAHORATI – G‘ALABANING ASOSI

Aksariyat hollarda jangdagi g‘alaba to‘g‘ri tanlangan taktikaga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham so‘nggi yillarda bo‘linmalar oldiga qo‘yilayotgan vazifalarning kutilganidek yakunlanishi, aynan ana shu omilga – puxta taktikani ishlab chiqilayotganidan darak beradi.

Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrugiga qarashli harbiy qismda okrug tasarrufidagi qo‘shilma va harbiy qismlar batalyon komandirlari va ularning o‘rinbosarlari ishtirokida o‘tkazilgan yig‘inda ham ana shu fikrlar o‘z isbotini topdi. Ya‘ni yetakchilar bir necha kun davomida o‘zlarining kasbiy mahoratlarini nafaqat oshirdi, balki topshiriqlarni ado etish usullarini, uslublarini tezkor ishlab chiqish borasida ham yuqori tayyorgarlikka ega ekanliklarini amalda isbotladi.

– Oliy harbiy ta‘lim muassasasida egallagan bilimlarimiz biz uchun poydevor xolos, – deydi kapitan Melis Sattorov. – To‘g‘ri, kursantlik davrida amaliyotga jalb etilamiz. Biroq bu haqiqiy tajribani oshirmaydi. Harbiy qismlarga kelgach, shaxsiy tarkib uchun mas‘uliyatni yelkaga olgach,

bir bor his etdik. Chunki bugun biz yurayotgan yo‘ldan ustozlarimiz allaqachon o‘tgan. Demak, ularda tajriba to‘plangan. Bizning vazifa ana shu xulosalardan kelib chiqib, milliy armiyamizning kuch-qudratini yanada oshirishga diqqatimizni qaratishdir.

Albatta, yaxshi komandir – shaxsiy tarkibni o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ko‘ngillarga milliy ruhni jo etadi. Qisqasi, izlangan har qanday yetakchi, alaloqibat o‘z ortidan qolganlarni – bo‘ysunuvchilarni yetaklaydi. Aksi bo‘lsa-chi? Unda bu komandirga ishonib topshirilgan barcha vazifalar ijobiy yakunlanmaydi. Shuning uchun mutaxassis hech qachon o‘rganishdan, marrani katta olishdan va yangiliklarni kashf etishdan to‘xtamasligi kerak.

Yig‘inda bu masalalarga alohida ahamiyat qaratilib, komandirlarning jangovar tayyorgarlik tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazish bo‘yicha nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazildi.



barchasi tubdan o‘zgaradi. Mana endi butun guruhning natijalari uchun izlanasiz. Bugungi yig‘in davomida ham ana shu jihatlarga alohida e‘tibor qaratildi. Ya‘ni safdoshlarimiz bilan kutilmagan vaziyatni boshqarish, yetakchilik qobiliyatini shakllantirish va har qanday holatda ham g‘alaba qozonish yo‘llarini topishga intilish kerakligini misollarda ko‘rib chiqdik. Ustozlarning o‘gitlari, ko‘rsatmalariga qat‘iy amal qilish lozimligini yana



Yig‘in davomida ishtirokchilarning ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida “Dushman bilan bevosita to‘qnash kelmagan sharoitda mudofaa jangini olib borish” mavzusida ham mashg‘ulotlar tashkil etildi. Jangovar harakatlarda ruhiy jarohat olgan harbiy xizmatchilarga psixologik ko‘mak berish, safga qaytarish bo‘yicha amaliy-ko‘rgazmali mashg‘ulotlar olib borildi.

Shuningdek, mashg‘ulotlar tungi, ko‘rish cheklangan sharoitlarda ham davom etdi. “Muborak” dala-o‘quv maydonida yetakchilar o‘z imkoniyatlarini mutlaq qiyin vaziyatlarda baholab oldi. Yakunda, yig‘inda erishilgan yutuqlar e‘tirof etilib, kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Kapitan Sarvar KIMSANOV,
Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug katta ofitseri



Ko'nikma



O'QUVCHI-YOSHLAR O'Q OTISH MASHG'ULOTLARIDA

Termiz umumqo'shin dala-o'quv maydonida Surxondaryo viloyatidagi umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari jangovar quroldan amalda o'q otish mashqlarini bajardi.



Mashg'ulotlar Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi qo'mondonlikning mas'ul ofitserlari rahbarligida o'tkazildi. Tadbir avvalida yoshlarga mamlakatimizda milliy armiyani rivojlantirish, harbiy xizmatni zamonaviy talablar asosida tashkil etish, shuningdek yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Shu bilan birga, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar haqida ham tushuntirishlar berildi.



Shundan so'ng Surxondaryo viloyatidagi maktablardan tashrif buyurgan 400 nafardan ortiq o'quvchi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan olgan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida harbiy qurol-aslahalar bilan muomala qilish, ulardan to'g'ri foydalanish hamda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etdi.

Ayniqsa, avtomatdan aniq mo'ljalash olish, uni noto'liq qismlarga ajratish va qayta yig'ish kabi amaliy mashqlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Harbiy xizmatchilar tomonidan qurolning tuzilishi, uning asosiy qismlari hamda ishlash tamoyillari haqida tushuntirish berildi. Yoshlar esa mutaxassislarning har bir harakatini diqqat bilan kuzatib, kerakli bilimga ega bo'lishga intildilar.

Nazariy mashg'ulotlar yakunlanganidan so'ng o'quvchilar uchun eng qiziqarli bosqich – amaliy o'q otish mashqlari boshlandi. Yoshlar shu kuni ilk marta haqiqiy qurolni qo'llariga oldi. Har bir ishtirokchi 100 metr masofada joylashgan nishonga qarata o'q uzib, o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda namoyon etdi.

– Bugungi mashg'ulotlar menda katta taassurot qoldirdi, – deydi Angor tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi Asilbek Azizqulov. – Shu kungacha qurol-aslahalar haqida asosan nazariy bilimlar olgan edik. Bugun esa

amalda qurol bilan ishlash jarayonida bevosita ishtirok etish imkoniga ega bo'ldik. Ayniqsa, birinchi marta haqiqiy quroldan nishonga qarata o'q uzish, men uchun juda hayajonli va unutilmas tajriba bo'ldi. Avtomatni noto'liq qismlarga ajratish va qayta yig'ish, nishonga aniq mo'ljal olish kabi amaliy mashqlar orqali harbiy tayyorgarlikning naqadar mas'uliyatli va muhim ekanini anglab yetdik. Bunday mashg'ulotlar bizga darslarda olgan bilimlarimizni amaliyot bilan mustahkamlash, harbiy sohani yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Eng muhimi, bugungi mashg'ulot bizda Vatanga muhabbat, yurt tinchligiga daxldorlik tuyg'ularini yanada mustahkamladi. Harbiy sohaga bo'lgan qiziqishim yanada ortdi. Kelajakda Vatanimizga munosib xizmat qilish, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini muhofaza qilish yo'lida o'z hissamni qo'shishni maqsad qildim.

Darhaqiqat, bunday tadbirlar yoshlarning harbiy sohaga qiziqishini oshirish, ularda Vatanga sadoqat, mas'uliyat va intizom kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu mashg'ulotlar o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash va kelgusida harbiy xizmatga tayyor holda yetishib chiqishlariga xizmat qilishi bilan ham qimmatlidir.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni



XALQ RUHIYATINI

Umumxalq bayramlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglash, ularni yosh avlod qalbida mustahkamlash, millat qadriyatlariga chuqur ehtirom ko'rsatish har bir o'zbek farzandi va ziyolisi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Chunki bayramlar xalq ruhiyatining oynasi, millatning madaniy va ma'naviy o'zligini namoyon etadigan ulug' an'analar sirasiga kiradi.

Aslida "bayram" tushunchasining o'zi ham xalq madaniyati va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu so'z turkiycha to'y, marosim, xursandchilik degan ma'nolarni bildiradi. Ilmiy manbalarda ushbu atamaga turlicha qiyoslar keladi. Jumladan, Falsafiy ensiklopediyada keltirilgan bayram – "insonlar xursandchiligining yig'indisi" talqini mohiyatan eng yaqin qarashlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Demak, shodlik asosiga quriladigan har qanday yig'in – bayram. Atoqli shoirimiz Abdulla Oripov ta'biri bilan aytganda **"Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram"**.

Bugungi kun avlodlari oldida ham bayramlarning tarixi va mazmunini chuqur o'rganish, ularning kelib chiqishi, milliy an'analar va urf-odatlarini avloddan avlodga yetkazishdagi o'rnini keng yoritish vazifasi turibdi. Bu jarayon nafaqat tarixiy xotirani saqlash, balki milliy o'zlikni anglash va uni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, milliy bayramlarimizning tarixiy asoslarini o'rganish, ularning milliy ildizlarini ochib berish va tarix hamda zamonaviylik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XALQ SHODLIGIDAN YARALGAN BAYRAM

Zamon o'zgargani sari insonlarning turmush tarzi, dunyoqarashi, orzu-intilishlari ham yangilanib boradi. Bu jarayon bayramlarga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Vaqt o'tishi bilan yangi bayramlar paydo bo'ladi, ayrimlari esa mazmun va shakl jihatidan boyib boradi. Ammo bayramning eng asosiy mohiyati – quvonch ulashish vazifasi aslo o'zgarmaydi.

Bayram kuni odamlar kundalik tashvishlarini bir chetga surib, hayotga yorug' nigoh bilan qarashga intiladi. Bu kunda yangi libos kiyishni, yaqinlari bilan diydorlashishni, o'yin-kulgi orqali qalb g'uborlarini tarqatishni istaydi.

Bayramlarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, ular muayyan vaqt va sana bilan bog'liq bo'ladi. Odamlarda bayramona kayfiyat o'sha oldindan belgilangan kun yaqinlashgani sayin paydo bo'la boshlaydi. Masalan, qishning uzoq va sovuq kunlari ortda qolib, tabiat sekin-asta uyg'oniib borayotgan pallani tasavvur qilaylik. Havo ilydi, yer yuzi yashillikka burkanadi, dov-daraxtlar gullay boshlaydi. Bahor nafasi butun olamni yangilab, insonlarga cheksiz quvonch olib keladi. Albatta, har bir kishi bu manzaradan o'zicha zavq oladi. Demak, ko'ngil bir shodlikni tantana qilishni tusaydi. Navro'z yaqin!

Bunday sanalarni belgilashda insoniyatning ming yillik kuzatuv va tajribalariga tayanilgan. Masalan, quyoshning hamal burjiga kirish vaqti "Navro'z" bayrami o'tkaziladigan vaqt sifatida qabul qilingan.

X-XI asrlarda yashagan buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy **"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"** asarida bu haqda atroflicha to'xtalib, "Navro'z"ning kelib chiqish sabablarini ilmiy jihatdan izohlab beradi:

"Navro'zning kelib chiqishi haqida turli afsonalar

mavjud, lekin bu masalaga ilmiy yondashilsa, Navro'zning paydo bo'lishi har tomonlama ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobar bo'lishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishni, bahorning kelishi sabab bo'lgan".

Vaqt o'tishi bilan bu bayram yanada rivojlanib, uning nishonlanadigan kuni aniq belgilangan va u "yil boshi" sifatida ham qabul qilingan. Manbalarda aytilishicha, "Navro'z" bayramini nishonlash bir oy davom etgan. Bu haqda Beruniy quyidagicha yozadi:

"Keyingi podshohlar bu oy, ya'ni farvardin mohning barchasi (kunlarini)ni hayitga aylantirib, ularni oltiga taqsim etadilar. Birinchi besh kun podshohlar uchun, ikkinchisi ulug' kishilar uchun, uchinchisi podshohlarning g'ulomlari uchun, to'rtinchisi xizmatkorlar uchun, beshinchisi xalq ommasi uchun, oltinchisi cho'ponlar uchun".

Bayramlarning yana bir o'ziga xosligi ular ko'plab tadbir va marosimlar uyg'unligida davom etadi: bir joyda ko'rgazma va tanlovlar o'tkazilsa, boshqa joyda polvonlar bellashuvi yoki dor o'yinlari namoyish qilinadi. Yana bir maydonda askiyachilar va qiziqchilar xalqni kuldirdi, boshqa yerda qo'g'irchoq teatri tomoshalari avjiga chiqadi. Shu bilan birga, badiiy havaskor jamoalar va folklor ansambllari chiqishlari, turli sport musobaqalari ham bayramning mazmunini yanada boyitadi.

An'anaviy marosimlar, xalq o'yinlari, sayillar va namoyishlar bayramlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Bunday tadbirlar maydonlarda, bog'larda va ko'chalarda o'tkazilib, odamlarni bir joyga jamlaydi. Shu orqali nafaqat ko'tarinki kayfiyat, balki barchada go'zallikdan zavq olish hissi ham paydo bo'ladi.

Bir badihago'yning ta'biri bilan aytganda bayram kuni yomonlar yaxshi, xasislar saxiy, xunuklar go'zal bo'ladi.

TARIX TEGRASIDAGI BAYRAMLAR

Xalq hayotida bayramlar faqat shodlik va dam olish kunlari emas, balki tarixning tirik guvohi, davr ruhini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisadir, desak yanglishmagan bo'lamiz. Ayniqsa, Temuriylar davrida o'tkazilgan bayramlar o'z ko'lamini, mazmuni va jozibasi bilan ajralib turgan. Bu bayramlar orqali davlat qudrati, xalq birligi va san'atning go'zalligi namoyon bo'lgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, o'sha davrdagi ma'rakalarda har bir san'atkorlar o'zicha alohida chiqish qilgan bo'lsa, bayramlarda barcha ijrochilar birlashib, umumiy tantananing bir qismiga aylangan.

Amir Temur davrida har qanday g'alabalar xalq bilan birga nishonlangan. Masalan, 1391-yili Amir Temur Oltin O'rda yaqinidagi "Qunduzcha"da To'xtamish ustidan g'alaba qozonganidan so'ng bu voqeani bir oy davomida ommaviy bayram sifatida nishonlashga farmon beradi.

Shuningdek, 1403-yilda Amir Temurning Yildirim Boyazid ustidan g'alaba qozonishi munosabati bilan Anqaradan olti manzil nari

Suri degan joyda, so'ngra Ko'tohiyada katta bayramlar uyushtirilgan. Bu bazmlarda *"xushovoz changchilar, pardasoz kamoncha choluvchilar, oy yuzli soqiylar... shodlik taratuvchi mug'anniylar xizmatda bo'lishgan"*.

Shunday bazmlardan birida asirga tushgan Boyazid ham ishtirok etgan. Bu haqda Nizomiddin Shomiy shunday yozadi:

"Amir sohibqiron uning ko'nglini ko'tarishga harakat qilib, umidi cho'ntagini omonlik naqdinasi bilan to'ldirdi. Unga may kosasini limmo-lim tutdilar va yana yangi suyurg'ollar bilan faxrlanish boshini osmonga yetkazdilar".

Amir Temur zamonasida shakllangan bayram, sayil va tomoshalar an'anasi uning vafotidan keyin ham to'xtab qolmagan. Temuriy shohlar sohibqiron joriy etgan rasm-rusumlar va odatlarga sodiq qolishgan. O'sha davr zamondosh tarixchilari Hirot shahrida 1412-yilda Shohrux tomonidan, 1462-yilda esa Husayn Boyqaro tomonidan katta bayram va tomoshalar o'tkazilgan. Shuningdek, 1462-yili Samarqandda Abu Said Mirzo ham katta tantanalalar uyushtirilgani haqida yozib qoldirishgan.

Biroq ular maishat va ortiqcha o'yin-kulgiga berilmagan. **Shu jihatdan Shohrux Mirzo nomi alohida tilga olinadi. Hazrat Alisher Navoiy u haqda shunday yozadi:** *"Xoqoni sa'id Shohrux Mirzokim, avlod va ajdod orasida sohibqiron otasining qoyim maqomi bo'ldi"*.

Temuriylar davrida saroy atrofida turli san'at egalari jamlangani barchamizga yaxshi ma'lum. Ular orasida Qur'on tilovat qiluvchi hofizlar, hadis rivoyat qiluvchi muhaddislar, hikoya va qissalar aytuvchi qissaxonlar, va'z so'zlovchi voizlar, shuningdek, sevimli sozandalar, xonandalar, raqqoslar va kulgi ustalari ham bo'lgan.

Qaydnomalarda keltirilishicha, Samarqanddagi Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Maydon hamda Konigul o'lani kabi maskanlarda Movarounnahrning eng sara sozandalari va o'yinchilari ishtirokida qabul marosimlari va bayramlar muntazam o'tkazib turilgan. Mirzo Ulug'bek esa an'anaviy Navro'z va Mehrjon bayramlarining munosib o'tishiga alohida e'tibor bergan. Shuning uchun ham o'sha davrning mashhur shoiri Sakkokiy Ulug'bekka bag'ishlangan qasidalaridan birida butun bir bobni Navro'zga bag'ishlaydi. **Unda quyidagi misralar keltirilgan:**

*Guliston ahlini bu kun erur ham iydi Navro'z,
Ular gul sochdilar, man ham keturdim xush bu
holvani.*

*Yohud gul vaslalaridan tikib bir xil'ati zebo,
Bu majlisga keturmakka tiladim asli valoni.*

Misralardan ham ko'rinib turibdiki, o'sha davr bayramlari faqat shodlik manbai emas, balki san'at, she'riyat va xalq ruhiyatini uyg'unlashtirgan katta madaniy hodisa bo'lgan.

QATAG'ONGA UCHRAGAN BAYRAMLAR

Xalq bayramlari asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan ma'naviy meros hisoblanadi. Biroq tarixda shunday davrlar ham bo'lganki, bu an'analarga nisbatan beparvolik emas, balki qattiq qarshilik ko'rsatilgan. Ayniqsa, XX asrning 30-50-yillaridagi shaxsga sig'inish davri xalqning ko'plab urf-odatlarini va bayramlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

O'sha yillarda an'anaviy xalq marosimlari va bayramlarini asrab qolishga uringan ziyolilar *"sho'ro davlati siyosatiga qarshi yot unsur"* yoki

BIRLASHTIRGAN bayramlar

“millatchi” degan ayblar bilan ta’qib qilingan. Hatto diniy mazmunga ega bo’lmagan oddiy xalq marosimlarida qatnashgan kishilarga nisbatan ham turli jazo choralari ko’rila boshlangan. Milliy madaniyatga xos urf-odatlar “eskilik sarqiti” sifatida baholanib, ularni bartaraf etish siyosati yuritilgan.

Shu davrda sho’ro siyosatdonlari Navro’z bayrami o’rniga “Kolxoz to’yi” deb atalgan yangi bayramni joriy etishga harakat qildilar. Kommunistik madaniyat tarafdorlari, ya’ni “eskilik sarqiti”ga qarshi kurashuvchi faollar xalqning o’z milliy va an’anaviy bayramlarini nishonlashiga yo’l bermas edi. Milliy bayramlarga, jumladan Navro’zga ham “eskilik sarqiti” sifatida qaralib, unga diniy bayram tamg’asi bosildi.

Navro’zni himoya qilgan yoki uni nishonlash tarafdori bo’lgan kishilar “xalq dushmani” deb ayblanib, qatag’onga uchragan hollar ham bo’lgan. Biroq shunday og’ir sharoitlarda ham xalq o’z qadimiy an’alaridan butunlay voz kechmagan. Milliy va diniy bayramlar ko’p hollarda yashirincha nishonlangan. Odamlar go’yo dala sayliga chiqqandek bo’lib, tabiat qo’ynida Navro’zni kutib olishgan. Bu haqda xabar topgan sho’ro faollari esa ularni turli usullarda ta’qib qilgan.

Ayrim hollarda Navro’zni nishonlayotganlarni qo’lga olish bo’yicha maxsus tadbirlar ham uyushtirilgan. Bayram tashkilotchilari va ishtirokchilari davlatga qarshi fitna uyushtirishda ayblanib, hibsga olingan. Bu holatlar milliy an’alarning qanday og’ir sinovlardan o’tganini ko’rsatadi. Shu bilan birga, xalqning o’z madaniy merosiga bo’lgan muhabbati va sadoqati qanday kuchli ekanini ham namoyon etadi.



YANGI DAVR SHODIYONALARI

Shukrki, bugungi kunda xalqimizning qadimiy bayramlari va urf-odatlar qayta tiklanib, yangi

mazmun bilan boyib bormoqda. Asrlar davomida shakllangan an’alarning ildizlari hozirgi bayramlarda ham o’z aksini topgan. Ilmiy nuqtayi nazardan mutaxassislar bu bayramlarni bir nechta yo’nalishlarga ajratib o’rganadilar.

Birinchiidan, ijtimoiy-siyosiy bayramlar barcha jamiyat a’zolari uchun muhim sana sifatida nishonlanadi. Ular orasida 1-sentabr – “Mustaqillik” kuni, 8-dekabr – “Konstitutsiya” kuni, 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni, 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda 21-oktabr – O’zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun. **Bu bayramlar davlat va xalq hayotidagi muhim voqealarni yodga soladi, fuqarolarda milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg’ularini uyg’otadi.**

Ikkinchiidan, milliy bayramlar xalqning qadimiy an’alari va tabiat bilan uyg’unligiga asoslanadi. Ular orasida – “Navro’z”, “Qovun sayli”, “Gul sayli”, “Suv sayli”, “Olma sayli”, “Qum sayli”, “Lola sayli”, “Qushlar bayrami”, “Ona yer saxovati” bayrami, “Mehrijon” va “Birinchi qadam” bolalar bayrami kabi turli tantanalar mavjud. **Bu bayramlar xalq hayotida quvunch va shodlik uyg’otadi, milliy madaniyatni saqlashga xizmat qiladi.**

Uchinchiidan, mehnat bayramlari xalqning mehnatga munosabati va ishlab chiqarish jarayonlarini nishonlaydi. Ular orasida “Birinchi chigit qadash” bayrami, “Hosil” bayrami, “Paxta” bayrami, “Birinchi gul” bayrami va “Birinchi karvon” bayramlari bor. **Bu bayramlar orqali mehnat, mehnatsevarlik va umuman jamiyat taraqqiyoti qadrlanadi.**

To’rtinchiidan, insonlarning e’tiqodi va ma’naviy hayotini aks ettiruvchi diniy bayramlar. Ular orasida Qurbon hayit va Ramazon hayit bayramlari bor. **Bu sanalar odamlar orasida mehr-oqibat va bag’rikenglikni mustahkamlaydi.**

Beshinchiidan, kasb bayramlari turli sohalarida faoliyat yurituvchi shaxslarning mehnatini qadrlashga qaratilgan. Ular orasida

O’qituvchilar va murabbiylar kuni, Radio kuni, Teatr kuni, Shifokorlar kuni, Ichki ishlar xodimlari kuni, Matbuotchilar kuni, Savdo xodimlari kuni, Metallurglar kuni, Aviatorlar kuni, Temiryo’lchilar kuni, Konchilar kuni, Neftchilar kuni, Geologlar kuni, Qishloq va o’rmon xo’jaligi kuni, Quruvchilar kuni kabi sanalar ham bor.

Oxirgi guruh taqvim bayramlari bo’lib, ular yil davomida keng nishonlanadi. Bu sanalarga 1-yanvar – Yangi yil bayrami, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 1-iyun – Xalqaro bolalar kuni, 1-aprel – Kulgi va hazil kuni va boshqalar kiradi. **Bu bayramlar odamlarga quvunch va ko’tarinki kayfiyat berib, jamiyatda do’stlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.**

Shu tariqa, turli mazmun va yo’nalishga ega bo’lgan bayramlar xalqimizning ma’naviy va madaniy hayotini boyitib, an’alarni saqlash va avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Bu bayramlarning barchasi jamiyat hayotida muhim o’rin tutadi. Ular xalqni birlashtiradi, insonlarda quvunch va iftixor tuyg’usini uyg’otadi, milliy an’alar va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, **bayramlar jamiyat taraqqiyoti bilan birga o’zgarib, mazmun jihatdan boyib borsa-da, ammo ularning asosiy mohiyati insonlarni birlashtirish, qalblarga quvunch ulashish va jamiyatda hamjihatlik ruhini mustahkamlashdan iborat bo’lib qolaveradi.**


Aynan bayramlar orqali xalq o’zining madaniy merosini saqlaydi, milliy o’zligini anglaydi va jamiyatda o’zaro mehr-oqibat, bag’rikenglik hamda birdamlik tuyg’ularini mustahkamlaydi. Buni o’zbek o’laroq har bir millat farzandlari yodda tutishlari shart!

Kapitan
Bobur ELMURODOV,
“Vatanparvar”



Kitob – ma’rifat manbayi

MA’RIFAT SARI



Bundan 7-8 yil burun shahrimizda sanoqli kitob do’konlari bo’lib, unda ham siz izlagan kitobingiz, ha deganda uchrayvermasdi. Qaysidir gazetada Rauf Parfi she’rlarini o’qib qolib, rosa qidirganman, kitob do’konlari, kutubxonalar, barchasini bir-bir axtarib chiqqanman. Eng yomoni esa o’shanda kitobi tugul shunaqa shoir borligini ham bilmagandi, ko’pchilik.

Bugun-chi, agar o’qirman o’qiyman desa, ilm-u urfon har qadamda hozir-u nozir. Bunga misol o’laroq, shahrimizning metro bekatlarida ochilgan “Turon” kutubxonasini aytish mumkin. Quvonarlisi esa u kitoblarni sotib ham olmaysiz, o’zingizga yoqqan biror asarni olib mutolaa qilib bo’lgach joyiga qaytarsangiz, kifoya. Bunga o’xshash ma’rifat yo’lidagi islohotlarni, sa’y-harakatlarni bugun sanab sanog’iga yetib bo’lmaydi.

Birgina respublikamiz miqyosida o’tkazilayotgan “Yosh kitobxon” va “Kitobxon oila” ko’rik-tanlovlarini olaylik. Bilim olganingiz uchun sizga mo’maygina daromad, avtomobil sovg’a qilishmoqda! Qaysi davlat yoki davrlarda bunday imkoniyat bo’lgan deysiz? O’zingiz uchun sevib kitob o’qiysiz, undan ma’naviy ozuqa

olasiz, umringizga mazmun olib kirasiz, bular uchun esa sizga eng so’nggi rusumdagi mashinani sovg’a qilishadi. Rosti bugungi davrni chinakam imkoniyatlar zamon, desak ham bo’ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar ham turli-tuman yolg’on alyorlardan bo’shab, adabiyotga ko’proq joy berganiga ko’zingiz tushgandir. Ijodkorlar o’zlarining ijod namunalari ommaga audio, video shaklda ham yetkazayotgani adabiyotning zamon bilan hamnafas ekanidan darak.


Birgina “Mutolaa” loyihasini oladigan bo’lsak, istagan kitobingizning audiosini topib, yo’l-yo’lakay yoki ish jarayonlarida tinglashingiz mumkin. Qo’lingiz ishda, qulog’ingizga esa adiblarning o’zlari kitoblarini o’qib berib tursa, ajoyib-a? Bir do’stim Angrendan Toshkent shahriga har kuni yuzlab chaqirim uzoqdan taksida ishga kelib ketadi. Matonatiga tasanno deyman. 6-7 kilometr joyga ishga zo’rg’a popkamizni ko’tarib borib kelamiz. “Sen charchamaysanmi?” desam, “Menga “Mutolaa” hamroh” deb katta energiya bilan gapiradi. “Mashinada kitob o’qib bo’larmidi”, deb ensamni qotirsam, “O’qib bo’lmasa,

Yurtimizda kitobxonlarga berilayotgan imkoniyatlardan odamning ko’ngli yorishadi. Bundan bir necha yil avval biror kitobni topish uchun ancha izlanish talab etilardi. Bugungi kunda esa kitoblar sizni axtarib yurganga o’xshaydi, go’yo. Siz o’qisangiz kifoya, o’zi ostonangizgacha “kirib keladi”. Kitob do’konlarining ko’payayotgani ham sir emas, bu ham xalqimiz ma’rifatining yuksalishiga katta e’tibor berilayotganidan darak.

eshitib bo’ladi-ku”, deb qoldi. Har kuni to’rt soat yo’l yuradigan bu yigitcha “Mutolaa” audio kitoblari hamrohligida uzog’ini yaqin qilib kelmoqda ekan. Tasanno dedim. Bizga o’xshagan bahonashunoslar oldidan oqqan suvga termilib, chanqog’imizni ham bosmaymiz. Yuqorida aytganimdek, endilikda har bir tolibga ilm yo’llari katta qilib ochib qo’yilgan. Faqat o’qirmanning birgina imosi kifoya.

Yurtimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan keng qamrovli targ’ibot ishlari barcha sohalar qatori harbiy tizimda ham izchil davom etmoqda. Xususan, askar va kursantlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning adabiy-badiiy dunyoqarashini kengaytirish, kitobga bo’lgan qiziqishini oshirish borasida amalga oshirilayotgan tashabbus va tadbirlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada olib borilayotgan samarali sa’y-harakatlar harbiy yoshlar ma’naviyatini boyitishda muhim o’rin tutmoqda. Birgina Mudofaa vazirligiga qarashli okrug qo’mondonliklarida yuzlab kutubxonalar qad rostlagan. Yaqindagina qabul qilingan qarorga muvofiq, bir million nusxadagi badiiy adabiyotning chop etilishi ham, **Prezidentimizning Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiylarning ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilayotgan ulkan e’tiborning yana bir yorqin ifodasidir.**

Guvohi bo’layotganingizdek, endilikda harbiy xizmatchilarning nafaqat



jangovar tayyorgarligini kuchaytirish, balki ularning ma’naviy olamini boyitish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamon talab qilayotgan ushbu yondashuv harbiylarning har tomonlama yetuk, ma’rifatli va vatanparvar bo’lib shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois harbiy qism va muassasalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bilamizki, kitob inson tafakkurini kengaytiradi, uning dunyoqarashini boyitadi hamda hayotga bo’lgan qarashlarini teranlashtiradi. **Ayniqsa, badiiy adabiyotlar jasorat, matonat, sadoqat va vatanparvarlik kabi yuksak fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.** Kitob mutolaasi orqali harbiylar buyuk ajdodlarimizning hayoti, tarixiy voqealar va qahramonlik namunalari saboq oladi. Shu bois joriy yilda barcha harbiy qism va muassasalarni jami 1 million nusxadagi badiiy adabiyot bilan ta’minlash

YETAKLOVCHI YO‘L

rejalashtirilgan. Bu tashabbus harbiy xizmatchilar orasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ma‘naviy dunyosini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Meni quvontirgan yana bir jihat haqida to‘xtalib o‘tmasam, ko‘nglim joyiga tushmas. Mutolaa uchun saralangan badiiy adabiyotlar tanlovi ham puxta va o‘ylangan tarzda amalga oshirilganiga guvoh bo‘ldim. Xususan, **xalq og‘zaki ijodining durdonalari hisoblangan, asrlar davomida avlodlar avlodga og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan “Alpomish”, “Ravshan”, “Yunus va Misqol pari” kabi dostonlar, shuningdek harbiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan “Temur tuzuklari”, “Boburnoma” kabi asarlarning tanlangani alohida e‘tiborga loyiq.** Shu bilan birga, o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalari ham nashrga tayyorlangani kitobxonlar uchun quvonchli voqealardan biri bo‘lmoqda. Jumladan, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Abdulhamid Cho‘lponning she‘rlari, Shukur Xolmirzayev hikoya va ocherklari, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo kabi shoirlarning tanlangan asarlari harbiy askar va kursantlar hayot yo‘lida muhim o‘rin tutadi.

Muddatli harbiy xizmatchilar tomonidan “Alpomish” dostoni, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanlarining o‘qib o‘rganilishi, Abdulhamid Cho‘lponning “Go‘zal Turkiston”, “Xalq dengizdir”, Erkin Vohidovning “O‘zbekim” va “Inson” qasidasi, Abdulla Oripovning “O‘zbekiston”, Muhammad Yusufning “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston” kabi she‘rlarining yod olinib, har oyning so‘nggi choragida o‘qilgan asarlar yuzasidan davra suhbatlari, viktorinalar va zakovat intellektual o‘yinlari tashkil etilishi, shu orqali harbiy xizmatchilarning bilimlari sinovdan o‘tkazib borilishi ularda vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiradi, ma‘naviy va axloqiy tarbiya beradi.

Birgina “Alpomish” dostonini misol qilib olsak, bu doston o‘zbek xalqining boy ma‘naviy merosi va qahramonlik an‘analarini aks ettiruvchi muhim asarlardan biri. Dostonning bosh qahramoni Alpomish obrazi orqali xalqimizning vatanparvarlik, mardlik va sadoqat kabi yuksak fazilatlarini yorqin tasvirlangan. Asarda Alpomish nafaqat kuchli va jasur yigit ko‘rinishida gavdalanadi, balki o‘z yurtiga, xalqiga chuqur sadoqat bilan qaraydigan qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. U har qanday sinov va qiyinchiliklarga qaramay, o‘z el-yurtining sha‘ni

va tinchligini himoya qilishni eng oliy burch deb biladi. Alpomishning Vatanga bo‘lgan sadoqati uning sabr-toqati, matonati va jasoratida yaqqol ko‘rinadi. U og‘ir sinovlar, asirlik va qiyinchiliklarga duch kelganida ham o‘z maqsadidan voz kechmaydi. Bu esa uning ruhiy kuchi va Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbatidan dalolat beradi. **Shu nuqtayi nazardan ham Alpomish obrazi bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar uchun u chinakam jasorat, fidoyilik va sadoqat timsolidir. Chunki haqiqiy askar Alpomish kabi o‘z yurtini himoya qilishni sharaflilik burch deb bilishi, har qanday vaziyatda ham Vatan manfaatini ustun qo‘yishi lozimdir.**

Bugun jahon va mintaqadagi harbiy siyosiy vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Shunday tahlikali vaziyatda harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yanada mustahkamlash bilan birga ularning ma‘naviy olamini ham muntazam boyitib borishni zamonning o‘zi talab etyapti. Zero ma‘naviy jihatdan yetuk, dunyoqarashi keng, Vatanga sadoqat ruhida tarbiya topgan harbiygina yurtimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligini mustahkam himoya qila oladi. Ana shu ma‘noda, kitobxonlikni targ‘ib qilish, **harbiylar qalbida yuksak insonparvarlik, jasorat va vatanparvarlik tuyg‘ularini**

mustahkamlashga xizmat qiladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bugun alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yurtimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor va yaratilayotgan keng imkoniyatlar jamiyatimiz ma‘naviy taraqqiyotining muhim omiliga aylanyapti. Kitob do‘konlarining ko‘payishi, kutubxonalar tarmog‘ining kengayishi, turli tanlovlar, mutolaa loyihalari hamda zamonaviy audio va elektron kitoblar orqali ilm-ma‘rifat har bir inson uchun yanada yaqin va qulay bo‘lib bormoqda. Bunday imkoniyatlar, ayniqsa yoshlar va harbiy xizmatchilar uchun o‘z bilim va tafakkurini boyitish, ma‘naviy kamolotga erishish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zotan, mutolaa orqali inson ma‘naviy kamolot sari intiladi. Shu ma‘noda, kitobga bo‘lgan mehr va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish kelajakni barpo etadigan ma‘naviy yetuk avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Qurolli Kuchlar safida ana shunday bilimli, vatanparvar va ma‘naviy barkamol yoshlarning xizmat qilishi esa yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi ishonchli qo‘llarda ekanidan dalolat beradi.

Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”





TARIX VA SHARAF TIMSOLI

Amir Temur – bu nom tarixda buyuk sarkarda, davlat arbobi va mustahkam iroda sohibi sifatida alohida o‘rin tutadi. U o‘zining beqiyos jasorati, harbiy mahorati va o‘tkir zehni bilan qudratli davlat barpo etgan, parokanda yerlarni birlashtirib, mustahkam davlatchilik asoslarini yaratgan buyuk tarixiy shaxsdir. Temur faqat jang maydonidagi g‘alabalari bilan emas, balki davlat boshqaruvidagi adolatli siyosati, qonun ustuvorligiga tayangan boshqaruv tizimi hamda ilm-fan, madaniyat va me‘morchilikka ko‘rsatgan yuksak e‘tibori bilan ham tarix zarvaraqalarida o‘chmas iz qoldirgan.

Uning nomi bilan bog‘liq shaharlar, obidalar va madaniy meros inshootlari bugungi kunda ham xalqimizning boy tarixi va yuksak tamaddunidani dalolat berib turibdi. Ayniqsa, **Shahrisabz shahri Amir Temur tug‘ilib o‘sgan muqaddas maskan sifatida uning alohida e‘tiborida bo‘lgan. Shu bois u bu shaharni obod va go‘zal maskanga aylantirishga katta ahamiyat bergan.** Shaharda bunyod etilgan Oqsaroy me‘moriy obidasi, bog‘-rog‘lar, masjid va madrasalar shaharning nafaqat siyosiy, balki madaniy va ma‘naviy ahamiyatini ham yuksaltirgan. Ayniqsa, Oqsaroy kabi betakror me‘moriy inshootlar shaharning shuhratini butun dunyoga taratgan. Bu esa buyuk sarkardaning nafaqat jang maydonlarida, balki yurti obod qilish, shaharlarni rivojlantirish va xalq farovonligini ta‘minlash borasida ham qanchalik ulkan ishlar amalga oshirganidan dalolat beradi.

Yurtimizda ulug‘ ajdodlarimiz xotirasi va merosini qadrlash, ularning jasorati va davlatchilik an‘analarini kelgusi avlodlarga yetkazishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. **Ana shunday e‘tiborning yorqin ifodalaridan biri sifatida mamlakatimizda “Amir Temur” ordeni ta‘sis etilganidir.** Ushbu orden davlat va jamiyat hayotida katta xizmat ko‘rsatgan, Vatan taraqqiyoti, mustaqillikni mustahkamlash, xalq farovonligi va yurtimiz obro‘-e‘tiborini yuksaltirish yo‘lida fidokorona mehnat qilgan shaxslarga va shaharlarga berilishi tasdiqlangan.

“Amir Temur” ordeni nafaqat yuksak davlat mukofoti, balki jasorat, matonat, fidoyilik va bunyodkorlik ramzi sifatida ham alohida qadrlanadi. Yurtimizdagi ayrim shaharlar mazkur orden bilan taqdirlangani ularning

mamlakat taraqqiyotidagi alohida o‘rni, xalqining mehnatsevarligi va bunyodkorlik salohiyatiga berilgan yuksak bahodir.

Ushbu orden 1996-yilning 24-aprel kuni ta‘sis etilgan. Shu yilning 28-avgust kuni esa bobokalonimiz **Amir Temur tavalludining 660 yillik yubileyi munosabati bilan Shahrisabz shahri “Amir Temur” ordeni bilan mukofotlangan.**

Bu yuksak mukofot Shahrisabzning ko‘p asrlik shonli tarixi, xalqimizning ma‘naviy merosini asrab-avaylash, milliy qadriyatlar va buyuk ajdodlar xotirasini ulug‘lash borasidagi xizmatlariga berilgan katta e‘tirof hisoblanadi. Chunki aynan shu zaminda dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk sarkarda Amir Temur tavallud topgan va ulg‘aygan. **Shu bois Shahrisabz nafaqat tarixiy shahar, balki milliy g‘urur va tarixiy xotira ramzi sifatida ham alohida ahamiyatga ega.**

Tarixiy manbalarga nazar tashlasak, Temuriylar davrida Shahrisabzda keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlar amalga oshirilganini ko‘rishimiz mumkin. Sohibqiron o‘zining tug‘ilib o‘sgan yurtini yanada obod va go‘zal shaharga aylantirishga alohida e‘tibor qaratgan. Bu yerda barpo etilgan muhtasham saroylar, masjidlar, madrasalar, bog‘-rog‘lar shaharning nafaqat siyosiy, balki madaniy va ma‘naviy markaz sifatidagi nufuzini oshirgan. Ayniqsa, **Shahrisabzda qad ko‘targan Oqsaroy majmuasi o‘sha davr me‘morchiligining**

eng yuksak namunasi sifatida butun dunyoga mashhur bo‘lib, Temuriylar davlatining qudrati va bunyodkorlik salohiyatining ramzi sifatida e‘tirof etiladi.

Shahrisabz asrlar davomida nafaqat siyosiy ahamiyatga ega shahar, balki ilm-fan, madaniyat va ma‘rifat rivojlangan markaz sifatida ham tarixda muhim o‘rin tutgan. Bu yerda yetishib chiqqan allomalar, san‘atkorlar va ustalar o‘z davrining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan. Shu bois **Shahrisabz nafaqat temuriylar tarixi bilan, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivoji bilan ham uzviy bog‘liq shahar hisoblanadi.**

Bugungi kunda ham Shahrisabz o‘zining betakror me‘moriy yodgorliklari, boy tarixi va ma‘naviy muhiti bilan yurtimizning eng qadimiy va go‘zal shaharlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Shaharda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli obodonlashtirish ishlari, tarixiy yodgorliklarni ta‘mirlash va asrab-avaylashga qaratilgan sa‘y-harakatlar uning yanada taraqqiy etishiga xizmat qilmoqda. Ana shu jihatlari bilan **Shahrisabz ajdodlar merosini asrab, uni kelajak avlodlarga yetkazayotgan muqaddas maskan sifatida mamlakatimiz ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutib kelmoqda.**

Mana shunday boy tarixiy meros, mamlakatimiz taraqqiyotiga qo‘shgan munosib hissasi hamda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish yo‘lidagi xizmatlari

uchun Shahrisabz shahri yuksak davlat mukofoti – “Amir Temur” ordeni bilan taqdirlangan. Bu yuksak mukofot shaharning nafaqat o‘tmishdagi shonli tarixi, balki bugungi taraqqiyoti va kelajak sari ishonch bilan qadam tashlayotgani uchun ham berilgan e‘tirofdir.

Bugun Shahrisabz shahri nafaqat tarixiy yodgorliklari bilan mashhur, balki zamonaviy qiyofaga ega, taraqqiy etib borayotgan shahar sifatida ham mamlakatimizda alohida o‘rin tutadi. Bu zamin ajdodlardan meros bo‘lib qolgan ulkan tarix va ma‘naviyatni o‘zida mujassam etgan holda, kelajak avlodlarni vatanparvarlik, milliy g‘urur va tarixga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgan muqaddas maskan bo‘lib qolmoqda.

Bunday shaharlar faqatgina aholi yashaydigan maskan emas, balki ular xalqning tarixi, madaniyati, iqtisodiy qudrati va ma‘naviy salohiyatini mujassam etgan muhim markazlardir. Shaharlarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, ilm-fan va madaniyat rivoji butun mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. **Shu bois mamlakat ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan ayrim shaharlarning “Amir Temur” ordeni bilan taqdirlanishi ularning yurtimiz tarixidagi o‘rnini yanada mustahkamlab, xalqimiz uchun faxr va iftixor manbai bo‘lib xizmat qiladi.**

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, “Amir Temur” ordeni bilan taqdirlangan shaharlar haqida so‘z yuritish, ularning tarixi, mamlakat taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirgan ishlari va yurtimiz ravnaqiga qo‘shgan ulkan hissasi haqida fikr yuritish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki yosh avlodni vatanparvarlik, fidoyilik va bunyodkorlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”**



Din – bag'rikenglik va insonparvarlik yo'li

VATANGA MUHABBAT – MUQADDAS TUYG'U

Vatan – Odam alayhissalom birinchi qadam qo'ygan tuproq, zurriyotlari to qiyomatga qadar istiqomat qiluvchi mo'tabar zamin.

Vatan nafaqat inson, balki butun mavjudot tirik jon uchun o'ziga xos, qo'nim topadigan maskan.

Vatan din, millat, elat, boylik, nasab, yosh, rang, joy tanlamaydigan, chegarasi ko'rinmas ajib bir tuyg'u.

Vatan – eng ko'p qalamga olingan, sirli-sinoatli, serqirra, serjilo go'sha.

Vatanli inson baxtli insondir. Bevatan inson esa baxtsiz insondir.

Kim Vatan tushunchasini yaxshi anglab yetmas ekan, uning bag'rida yashashidan ma'no yo'qdir. Shunga ko'ra, Vatanni bilmagan kas, ta'bir joiz bo'lsa, hayvondan ham, parrandadan ham, hasharotdan ham tuban hisoblanar ekan.

Vatan yaxshi va yomon kunlarni xotiraga muhrlovchi, insonning qadr-qiyamatini o'lchab beruvchi hayot maktabidir.

Vatanga muhabbat qo'yish juda ham nozik va ayni paytda muhim mavzu bo'lib, buni izohlash uchun zamondosh olimlardan birining xolisona aytgan fikrini keltirish yetarli: **“Bugungi kunda bo'layotgan to's-to'polonlar, urush-janjallar, nohaq qon to'kilishi, notinchlik hamda obod joylarning vayron etilishidagi eng katta va asosiy sabab odamlarda Vatanga bo'lgan muhabbatning yetishmasligidir”**, degan edi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida dunyoning turli joylarida bo'layotgan xurujlar haqida xabarlar berib borilmoqda. Unda muqaddas dinimizdagi mo'tabar tushunchalarni buzib talqin qilish natijasida mana shu kabi holatlar bo'layotgani hech kimga sir emas.

Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi asrda buzg'unchi g'oyalarni tarqatib, tinch yurtlarni vayron qilayotganlarning borligini hammamiz yaxshi bilamiz. Nima emishki, islom dinida Vatan tushunchasi haqida biror so'z aytilmagan, qiymatsiz oddiy bir so'z ekan.

Ana o'sha puch va hech qanday dalilga ega bo'lmagan g'oyalar girdobiga tushib qolib, Vatanga, xalqiga, oilasiga, kerak bo'lsa, ota-onasiga qarshi chiqayotgan, hozirgi zamon ta'biri bilan aytganda, vatanfurushlik qilayotgan g'alamislarning borligi achinarli

holat, albatta. Ular qilayotgan razolatlar asosida Vatan tushunchasini yaxshi anglab yetmaslik yotibdi, desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Vatanning qanday haqlari bor?

Har bir inson zimmasida o'z Vatani oldida bir necha haqlari bor. Ularning eng muhimlari quyidagilar:

1. Vatanni sevish.

Bu borada sevikli Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bizga o'rnak-namuna.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkaga qarab: “Ey Makka! Sen qanday go'zal shaharsan! Sen menga qanday suyuqlisan! Agar qavmim meni sendan chiqarmaganlarida edi, boshqa joyda turmasdim”, dedilar” (*Imom Termiziy rivoyati*).

2. Yurt obodligi uchun hissa qo'shish.

Yurt ravnaqi va taraqqiyoti o'z-o'zidan bo'lmaydi, albatta. Uning rivoji, gullab-yashnashi bag'rida yashayotgan odamlarga bog'liqdir. Mamlakatning har bir fuqarosi yurt rivoji va taraqqiyotiga o'zini daxldor deb bilishi, vazifasini sidqidildan, chiroyli ado qilishi lozim. Bu yo'lda birzum tin olmaslik, qo'ldan kelgan barcha imkoniyatlarni ishga solmoqlik dardkor. Yurt rivojiga har bir soha vakili mas'ul. Fuqaroning yurti taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi uning qilayotgan mehnatida yaqqol namoyon bo'ladi.

3. U yerda buzg'unchilik va fasod ishlardan saqlanish.

Yerda fasod va buzg'unchilik qilish kabira gunoh hisoblanadi.

4. Yurtni himoya qilish.

Vatanni himoya qilish, dushmanlardan asrash, ravnaqi va farovonligi yo'lida xizmat qilish har bir insonning muqaddas burchi. **Vatan himoyasi yo'lida mijja qoqmay, posbonlik qilgan kishini do'zax otashi ham kuydirmaydi.**

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan eshitdim: **“Ikki ko'zni do'zax o'ti tutmaydi: Allohdan**

qo'rqib yig'lagan ko'z va Allohning yo'lida qo'riqlab, tong otirgan ko'z”, dedilar” (*Imom Termiziy rivoyati*).

Shuni ta'kidlash kerakki, Vatan himoyasiga faqat harbiylar emas, balki yosh-u qari barcha birdek mas'ul. Himoya qilish deganda faqat qurol ko'tarib emas, ilm-u ma'rifat bilan, g'animlarga raddiya berish bilan Vatanga tosh otuvchi ig'vogarlariga qarshi kurashish yo'llari bilan yurtini, millatni himoya qilish mumkin. Bu har bir yurt farzandining oliy vazifasi bo'lmog'i dardkor.

Vatanga xiyonat – og'ir gunoh

Vatanni himoya qilish naqadar ulug' savob hisoblansa, unga xiyonat qilish shu qadar katta gunoh, eng oliy jazoga loyiq jinoyat hisoblanadi. Har bir inson o'z Vatani, oilasi va xalqini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashi lozim. Aksincha, Vatanga xiyonat qilish, ota-onasi, farzandlari va xalqining qadriga yetmaslik, ularni o'ylamaslik yoki ularga qarshi qurol o'qtalish – shariatimizga ko'ra eng og'ir gunoh va qonunchilikka ko'ra mudhish jinoyat. Bu narsa insoniylik mezoniga ham to'g'ri kelmaydi. **Zero inson o'z Vatanining ravnaqi uchun fidoyilik ko'rsatishi, bu yo'lda kerak bo'lsa, jonini ham fido qilishi lozim.**

Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi asrda buzg'unchi g'oyalarni tarqatib, tinch yurtlarni vayron qilayotganlarning borligini hammamiz yaxshi bilamiz. Vatanga, xalqiga, oilasiga, kerak bo'lsa, ota-onasiga qarshi chiqayotgan, vatanfurushlik qilayotgan g'alamislarning borligi o'ta achinarli holdir. Ular qo'l urayotgan bunday razolatlar zamirida Vatan tushunchasini yaxshi anglab yetmaslik yotibdi.

Afsuski, Vatanning qadriga yetmagan ayrim kimsalar, go'yoki “hijrat qilish” degan soxta da'voni qilib, oilasi bag'rida tinchgina hayot kechirayotgan musulmonlarni o'zga yurtlarga chiqib ketishga da'vat qilmoqda. Ammo turli siyosiy kuchlarning qo'lida qo'g'irchoq bo'lgan go'l va johil vatangadolar dunyoning notinchlik hukm

surayotgan va o'zlari qo'nim topgan mintaqalarga mutaassib kimsalarni bir joyga jamlab berish orqali rahnamolari rejalashtirgan manfur siyosiy o'yiniga xizmat qilmoqda, xolos. Xususan, ular ilm-ma'rifatdan yiroq kimsalarni o'z atrofiga to'plashga intilib, islom diyori bo'lgan, besh mahal azon aytiladigan, juma va hayit namozlari bemalol o'qiladigan, xullas islomning besh arkoni emin-erkin ado etilayotgan va tinchlik-xotirjamlikda hayot kechirayotgan Vatanlarini tark etishga targ'ib qilishmoqda.

Vatanga xiyonat, ota-onasi, farzandlari va xalqining qadriga yetmaslik, ularni o'ylamasdan Vatanga qarshi qurol ko'tarishi – eng og'ir gunoh va juda katta jinoyat!

AZIZ O'G'IL-QIZLARIM!

Har bir inson dunyoga kelar ekan, unga bir tuyg'u hamroh va yo'ldosh bo'ladi. Bu ona yurti va Vatanga muhabbat tuyg'usidir. Ana shu tuyg'u undan bir umr ajralmaydi. Mabodo u begona yurtlarga safar qilganida ham ko'p o'tmay, o'z yurti va kindik qoni to'kilgan tuproqni sog'inadi, o'zi tug'ilib o'sgan maskaniga talpinadi. Shuning uchun siz yoshlar bu tuyg'uning qadriga yeting, ona Vatan va yurt ravnaqi yo'lida qo'ldan kelganicha xizmat qiling, ilm oling va olgan ilmingiz bilan yurt taraqqiyotiga hissa qo'shing. Sizlar ham ajdodlaringiz kabi vatanparvar va xalqparvar insonlar bo'lib yetishingki, kelajakda sizlarning nomingizni ham Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oni va Abu Muso Xorazmiy bobolarimiz kabi tug'ilgan joyi nomi bilan tilga olishsin.

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR,
O'zbekiston musulmonlari
idori raisi, muftiy



Meros



Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'oti-t-turk” asari turkiy tilning lug'aviy boyliginingina emas, balki xalq hayotining barcha qirralarini – kundalik turmush tarzi, ma'naviy dunyosi, urf-odatlarini hamda o'sha davrga xos tibbiy bilim va tasavvurlarni ham o'zida jam etgan betakror ensiklopedik manba.

KOSHG'ARIYNING “RETSEPTSIZ” DORILARI: O'N ASR AVVALGI MALHAM VA XASTALIKLAR

“Devon”da qayd etilgan dorivor o'simliklar, shifobaxsh vositalar hamda ulardan foydalanish usullari haqidagi ma'lumotlar o'sha davr tabobat ilmi darajasini anglash, xalqning ko'p asrlik tajribasini ilmiy jihatdan o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Xabaringiz bor, Toshkent shahri va tajriba-sinov loyihasi amalga oshirilayotgan 15 ta tuman (shahar)da “Elektron retsept” tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan ro'yxat asosida tegishli dori vositalari retsept bilan berilmoqda.

Bundan o'n asr muqaddam turkiy xalqlar hayotida muomalada bo'lgan dorivor vositalar, turli xastaliklarni bartaraf etishdagi tibbiy usullar bugungi o'quvchida ham qiziqish uyg'otishi, tabiiy. Ayniqsa, zamonaviy dorixonalarimiz ajnabiy nomdagi dori-darmonlarga to'lib-toshgan bir paytda asrlar qa'ridagi turkiycha “o't” va “im”lar, ularning shifobaxsh xususiyatlari nafaqat tarixiy, balki ma'naviy bilimlarimizni ham mustahkamlashi shubhasiz.

O'SHA DAVR TABOBATI mahalliy dorivor o'simliklar bilan cheklanib qolmasdan, turli xorijiy o'lkalardan keltirilgan dori vositalari, ularni qo'llashga oid amaliy tajriba va tibbiy bilimlarni ham o'z ichiga olgan. Bu holat o'rta asrlar turkiy tibbiyotining boy, tizimli va ochiq ilmiy an'analarga ega bo'lganini yaqqol ko'rsatadi. Shu bilan birga, “Devon”da uchraydigan tibbiy atamalar va ularga berilgan izohlar nafaqat davolash amaliyotini, balki o'sha davr xalqlarining tabiat, inson tanasi va kasallikka oid o'ziga xos dunyoqarashini ham ifoda etadi. Quyida esa ayrim so'zlarning ma'no qatlamlari hamda ularning o'sha davr tabobati bilan bog'liq jihatlariga nazar tashlanadi.

“Devon”da **ot (o't)** so'zi **dori, davo** ma'nosida keladi. “**Ot ichtim**” dori iste'mol qilishni bildirsa, shu negizda yasalgan “otachi” so'zi tabibga nisbatan qo'llanilib, tibbiy bilimning amaliy tajribaga suyananini tasdiqlaydi.

“**Em**” so'zi ham qadim turkiy tilimizda davo va shifo tushunchasining markazida turadi. Bu so'z nafaqat dorini, balki davolash jarayonining o'ziga xos mohiyatini ifodalagan. “Emchi” atamasi orqali o'sha zamon tabobatida ma'lum tibbiy bilimga ega bo'lgan mutaxassis tushunilgan. Hozirgi tilimizdagi “emlash” ham shu asosdan hosil bo'lgan.

Ko'rinadiki, til qurilishidagi harakatni yuzaga keltiradigan **-la, -chi** fe'l yasovchi qo'shimchasi ham ancha qadimiydir.

Yana bir atamalardan biri “bibli”dir. Bu so'z qadim turkiy tibbiyotda murchning uzun navini, ya'ni dorivor o'simlik, ta'm

qo'shuvchi vositani anglatgan. Bu dori nafaqat ta'mi, balki shifobaxsh xususiyati tufayli xalq orasida keng iste'molda bo'lgan.

“**Ang**” so'zi qadim turkiy tibbiy manbalarda davo vositasi sifatida ko'rsatiluvchi qush yog'idir. U shifobaxsh xususiyatga ega bo'lib, mushak og'riqlarini yengillashtirishda qo'llanilgan. U kaftga surtilib, teriga singdirilgan.

“Devon”da uchraydigan ayrim dori nomlari xalqning irim-sirim va e'tiqodiy qarashlari bilan ham uyg'un holda qo'llanilgani kuzatiladi. Jumladan, “**egit**” yaralarni davolash bilan bir qatorda, ko'z tegishi va turli salbiy ta'sirlardan saqlanish vositasi sifatida ham ishlatilgan. Uning tarkibiga za'faron va boshqa tabiiy moddalar kiritilib, ularning o'zaro birikmasi orqali dori shifobaxsh xususiyat kasb etgan. Mazkur

vosita bolalar va kattalar yuziga surtib qo'yilgan.

Yana bir o'simlik turi “**egir**” (**iyir**) deb nomlanib, qorin og'rig'ini davolash uchun qo'llanadigan. Egir bo'lsa, er olmas iborasining ma'nosi: qorin og'rig'iga duchor bo'lgan odam uni iste'mol qilsa, hayotiy zarardan saqlanadi.

“**Ipruk**” bugungi kunimizda ham faol tabiiy vosita sifatida qo'llanilib, qatiq bilan sutning aralashmasidan qurtoba shaklida tayyorlanadi. “**Ipruk**” qadim turkiy tabobatda ich qotishi va hazm buzilishlarida qo'llanilgan tabiiy dori sifatida ma'lum.

Surgi dorilardan yana biri “**O'trum**” va “**Churni**”dir. Ular zahr, yara va shishlarning oldini olish va og'riqni yengillashtirishda ishlatilgan. Churnining turk tabiblari tomonidan tayyorlanishi bu davrda mahalliy mutaxassislik va retseptura amaliyoti rivojlanganini ko'rsatadi.

“**Kekush**” atamasi shishga surtiladigan malham sifatida qayd etilgan. “**Irvi**” va “**urag'un**” esa kasalliklarni davolashda qo'llanilgan hindcha dorilar nomi sifatida tilga olinadi. “**Xasni**” bolalarni semirtirish maqsadida yaratilgan dori bo'lib, Hindistondan keltirilgani manbalarda ko'rsatiladi. Bu kabi vositalarning qo'llanilishi qadim tabobatda bolalarning ozuqaviy holatini yaxshilash va sog'lom o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilganidan dalolat beradi. Shuningdek, hind dorilarining kirib kelishi savdo yo'llari orqali shakllangan xalqaro tibbiy tajribaning mavjudligidan dalolatdir.

“**Uditg'an**” ko'p uxlatib qo'yadigan doridir. Uning uxlatuvchi ta'siri asabni tinchlantirish bilan bog'liq tibbiy amaliyotlarda qo'llanganini ko'rsatadi.

“**Tavg'ach yudasi**” – bargi savsan gulining barglariga o'xshash bir daraxt. Uni dori sifatida ishlatadi. Undan yara va shishlarni yengillashtirishda foydalanilgan. “**To'pulg'aq**” esa tabobatda qorin va ichak kasalliklarida ishlatilib, bu o'simlikning tabiiy tarkibi va ta'siri orqali davolash amaliyotida faol qo'llanilganini ko'rsatadi.



“**Yaqigʻ**” qadim tabiblar tomonidan mahalliy taʼsir koʻrsatuvchi vosita sifatida qoʻllangan. Ushbu dori yara va shishlarning tez shifo topishi, ogʻriqning yumshatilishi va infeksiyaning oldini olishda ishlatilgan.

Hindistondan keltirilgan dorilardan yana biri “**buga**” deb nomlangan. Turli rang va turdagi vositalar uning samaradorligi va qoʻllanish maqsadlariga koʻra ajratilib ishlatilgan. Sariq va qoʻngʻir rangi bilan farqlanishi, ehtimol dorining moddiy tarkibi va taʼsir kuchiga bogʻliq boʻlgan. Bu davolash usulida moddaning xususiyati va natijasi muhim hisoblanganini koʻrsatadi.

“**Bezinch**” qadim turkiy tibbiyotda mahalliy oʻsimliklardan tayyorlangan malham sifatida qoʻllanilgan. Bu vositadan yara va terini yumshatishda, shish va ogʻriqlarni yengillashtirishda foydalanilgan.

OʻZBEKNING ASRIY HAMROHI boʻlgan isiriq “Devon”da “isiriq” shaklida kelib, bolalarning boshiga toshadigan yaralarni davolashda foydalanilgan. Bu vosita nafaqat moddiy, balki ruhiy taʼsir orqali ham shifo berishga qaratilgan. Masalan, koʻz tegishidan himoya qilish uchun bolaning yuziga tutunini isiriq-isiriq (“*Ey jin, es-hushini yoʻqot*”) deb tutilgan.

Anduz (yoki angduz) – yerdan qazib olinadigan oʻsimlik ildizi boʻlib, mahalliy aholi uni “rosan” deb atagan. U otlarning qorin ogʻrigʻi kasalida davo vositasi sifatida qoʻllangan. “Anduz boʻlsa, at olmas” iborasi rosan oʻti ot bilan birga yoʻlda boʻlsa, ot qorin ogʻrigʻidan azob chekmasligini anglatadi.

Koʻp asrlar avval ham, yurak ogʻrigʻiga malham boʻluvchi oʻsimliklar boʻlgan. “**Egirsadi**” ana shunday malhamlardan biri. U qadim turkiy tibbiyotda yurak va qon aylanishi bilan bogʻliq kasalliklarni davolashda qoʻllanilgan.

“Devon”dagi yana bir maʼlumot kishini hayratda qoldiradi. “**Sigʻun oti**” ildizi odam shaklida oʻsadigan oʻsimlik. U erkak va ayollarda jinsiy salomatlikni taʼminlashda muhim oʻrin tutgan.

Yana bir shifobaxsh dori nomi “**Chaxshu**” deb atalib, u koʻz ogʻrigʻi va koʻz bilan bogʻliq muammolarni davolashda samarali vosita hisoblangan.

“**Avilqu**” qadim turkiy tibbiyotda hamda kundalik hayotda universal vosita sifatida qoʻllanilgan. Mevasi va poʻstlogʻi nafaqat davo maqsadida, balki rang berishda ham ishlatilgani uning tabobat va amaliyotdagi koʻp qirraliligini namoyon etadi.

“Devon”da oʻzini doim salomat asrash, oʻz-oʻziga yordam koʻrsatish “qartandi” atamasi bilan ifodalangan. “Er qartin qartandi” iborasi orqali inson oʻzini himoya qilish va oʻz salomatligini nazorat qilish zarurligi taʼkidlanadi.



AHAMIYATLISI SHUNDAKI, “Devon”da mahalliy turkiy xalqlar orasida qoʻllanilgan qadimiy kasalliklar nomi ham keltirib oʻtiladi. Masalan, “**oʻtugʻ**” oshqozon va ichak bilan bogʻliq ogʻir holatlarni anglatgan. Bu kasallik asosan, hazm tizimi buzilishi va organizmdan zararli moddalar chiqishi (*qusish*) bilan namoyon boʻlgan. “**Anar oʻtugʻ tutdi**” iborasining maʼnosi “**Uni ich ketish va qusish tutdi**” deganidir.

Qorinda sariq suv yigʻilishi, organizmdagi suyak va yogʻlar muvozanatining buzilishi “**atgʻaq**” kasalligi deb atalgan. Sariq rangdagi bir turli oʻsimlikka ham **atgʻaq** deyilsa, qaygʻudan rangi sargʻayganlik ham shu soʻz bilan ifodalangan.

Kindikning ichki tomoni toʻgʻrisida paydo boʻluvchi kulanjga oʻxshash kasallik “Inagu” deyilgan.

“**Anumi**” esa xalq orasida shu nom bilan qoʻllanuvchi moxov kasalligining nomi. Uning asoratlari aniqlanishi bilan muayyan muolaja va choralar koʻrilgan.

Hayvonlarda uchraydigan kasalliklar ham xalq tibbiy amaliyotida alohida ahamiyatga ega boʻlgani “Devon”da qayd etilgan. Masalan, “**etilgan**” otlardagi bez kasalligi sifatida taʼriflanib, kasallik davomida bez oʻzi yorilishi va soʻngra tuzalishi koʻrsatilgan. Bu maʼlumotlar mahalliy amaliyotda hayvonlarni davolashda tabiiy vositalar va anʼanaviy tajribadan foydalanilganini koʻrsatadi. “Childak” esa otning koʻkrigiga chiqadigan yaraning bir turi sifatida keltiriladi.

“**Yaqriqan**” mevali oʻsimlik turlaridan birining nomi. Uning poʻsti shamollab yorilgan lablarga surtilganda shifo boʻladi.

Bugungi hayotimizda uchraydigan tutqanoq kasalligi qadim turkiy devonda “**tutugʻ**”, yaʼni jindan kelib chiqqan kasallik sifatida qayd etilgan. U ruhiy va irsiy kasalliklar qatoriga kiritilgan. Masalan, “**Anin tutugʻi bar**” deganda xalq u kishining jin kasali (*yaʼni tutqanoqʻi*) mavjudligini nazarda tutgan. Bu tushuncha kasallikning jindan deb baholanishi orqali

qadimiy irim-sirimlar va ruhiy dunyoqarashning ahamiyatini ham aks ettiradi.

“**Talgʻan ig**” atamasi ham “tutugʻ” bilan uzviy bogʻliq boʻlib, kasallik xususiyati va taʼsirini aniqlashda ishlatiladi. Ushbu iboralar orqali kasallikning turi va uni davolashda qoʻllaniladigan chora-tadbirlar tizimi namoyon boʻladi.

Bugungi tibbiyotimizdagi chechak kasali “Devon”da “**chekak**” (*chigilcha*) nomi bilan atalgan. Bu kasallik oʻsha davr hayotida ham epidemik kasallik sifatida qayd etilgan. Bu kasallikning ogʻir asoratlari va tarqalish xususiyati xalq davolash amaliyotida maxsus choralarni talab qilgan.

“Devonda” “**Kezik**” soʻzi umumiy kasallik tushunchasini, “sariq kezik” esa sariq kasalni anglatgan boʻlsa, soʻgal ham oʻgʻuzchada bemorni ifodalagan. Soʻgal “Devon”da “**sigil**” nomi bilan kelsa, “**tupulgʻaq**” ichak va qorin bilan bogʻliq kasalliklar qatorida qayd etilgan.

TAHLILLARDA KOʻRINADIKI, koʻpgina xastaliklar nomi va ularning paydo boʻlish shakli oʻsha davr xalq eʼtiqodi va ruhiyatiga ham bevosita bogʻliq boʻlgan. Masalan, “buquq” (*buqoq*)ni olaylik. “Devon”da unga tomoqning ikki tarafi, teri bilan goʻsht orasida paydo boʻladigan et bezi, deya taʼrif berilgan. Yana aytiladiki,

Fargʻona bilan Siqni shaharlarida bir qancha kishi bu dardga yoʻliqqan, bu dard nasldan naslga ham oʻtgan. Baʼzilarining buqogʻi kattaligidan koʻkragini koʻrolmas darajaga yetgan.

Koshgʻariy yozadi: “Men ulardan bu kasalning sirini soʻraganimda, shunday javob bergan edilar: “Bobolarimiz gʻoyat baland tovushli kofirlar boʻlgan ekan. Ular sahobalar bilan jang qilishibdi. Otlarimiz ularga katta kuch bilan bostirib boribdilar, baland ovozda baqirib-chaqiribdilar. Musulmonlar ularning haybatli ovozidan hayajonga tushibdi. Bu voqea hazrati Umarning qulogʻiga ham yetib boribdi. Hazrati Umar ularni qargʻabdi. Natijada ularning boʻgʻizlarida shu dard paydo boʻlgan va bu dard ularga meros boʻlib qolgan ekan. Hozir ular orasida biror baland ovozli kishi topilmaydi”.

Xastaliklardan yana biri – “**bezitti**” boʻlib, “titratdi”, “qaltiratdi” maʼnosida keladi. “Tumlugʻ ani bezitti” iborasining maʼnosi “Sovuq uni qaltiratdi”, demakdir. Bu kasallikning “bezugak” shakli ham bor. U “bezitür, bezitmak” feʼllaridan kelib chiqib, bezugakning kasallik xususiyatlarini aks ettiradi.

TAHLILLAR SHUNI KOʻRSATADIKI, “Devon”da keltirilgan dorivor oʻsimliklar va kasalliklar nomlari xalq tibbiyotining boyligi va turkiy xalqning davolanishdagi tajribasini ochib beradi. Har bir dorining qoʻllanishi va kasalliklarga mosligi qadimiy tabobatning tizimli yondashuvga ega boʻlganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, bu maʼlumotlar xalqning tabiiy malhamlar, mahalliy va xorijiy dorilardan foydalanish malakasini ham aks ettirishi bilan ham qimmatlidir.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
“**Vatanparvar**”,
filologiya fanlari boʻyicha
falsafa doktori



Chegara qo'shinlarida

O'G'LONLAR VATAN HIMOYASIGA OTLANDI!



Respublikamiz bo'ylab chaqiruv yoshidagi yigitlarni Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari safiga muddatli harbiy xizmatga tantanali kuzatish va kutib olish tadbirlari bo'lib o'tdi.



Nukus shahrida erta tongdan harbiy orkestrning vatanparvarlik ruhidagi tantanavor sadolari ostida yuzlab azamat o'g'lonlar sharaflari burch – Vatan himoyasiga otlandi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali tadbirida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi, DXX Chegara qo'shinlari mas'ullari, Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik va idoralarning hududiy rahbarlari, shuningdek davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar hamda chaqiriluvchilarning ota-onalari ishtirok etdi.

Unda so'z olganlar bugun milliy armiyamiz nafaqat qudratli kuch, balki yoshlarimizning iroda va matonatini toblaydigan haqiqiy hayot maktabiga aylangani xususida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, yurt ostonasini qo'riqlab, Vatanning har qarich tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash katta shijoat bilan birga yuksak mas'uliyatni talab qilishi ham alohida ta'kidlandi.

– Bugun o'g'limni harbiy libosda ko'rib, uning ulg'ayganini his qildim. Vatan oldidagi burchini munosib o'tab, yorug' yuz bilan yonimizga qaytishini tilayman. Ushbu safda turgan barcha yoshlarimiz ham shunchaki chaqiriluvchilar emas. Ular intellektual salohiyati, jismoniy tayyorgarligi va ma'naviy yetukligi bilan saralab olingan asl o'g'lonlardir. Chunki ularning ko'zlarida hayajon bo'lsa-da, qalblarida yurtga sadoqat bilan xizmat qilish istagi yonib turibdi, – deydi Aziza Matsapayeva.

Tadbir davomida harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar hamda san'atkorlarning vatanparvarlik ruhidagi chiqishlari yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Albatta, muddatli harbiy xizmat er yigit hayotidagi eng muhim qadamlardan biri. Zero yuqori intizom, mas'uliyat hissi hamda jasorat tuyg'usi ayni shu davrda shakllanadi.

Jizzax temiryo'l vokzalida ham Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar tantanali tarzda kutib olindi. O'z burchini sharaf bilan ado etish uchun yo'lga chiqqan bu o'g'lonlarga Chegara qo'shinlari ofitserlari tomonidan yuksak ishonch bildirib, zarur tavsiyalar berilgach, ular maxsus avtotransport vositalarida harbiy qismlarga kuzatildi.

Poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida esa Toshkent shahridan Farg'ona, Namangan va Surxondaryo viloyatlariga muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun yo'l olgan o'g'lonlarni tantanali kuzatish tadbiri bo'lib o'tdi. Unda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari mas'ullari, faxriylar, Toshkent shahri hokimligi vakillari hamda chaqiriluvchilarning ota-onalari ishtirok etdi.

Yurt tinchligini himoya qilishdek mas'uliyatli vazifani o'tashlarida o'g'lonlarga omadlar tilangach, yig'ilganlar e'tiboriga ko'rgazmali jangovar chiqishlar hamda Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar havola qilindi.

Shu kuni Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlaridan Toshkent viloyatining qo'shni davlat bilan chegaradosh hududlarida o'z yigitlik burchini o'tash uchun yo'lga chiqqan azamatlar ham Toshkent janubiy vokzalida harbiy orkestr sadolari ostida tantanali kutib olindi.

Bu kabi tadbirlar mamlakatimiz bo'ylab keng qamrovda tashkil etildi. Xalqimizda "Yigit omon bo'lsa, yurt tinch bo'ladi", degan hikmat bor. Biz Vatan sarhadlarini himoya qilishga shaylangan barcha o'g'lonlarga oq yo'l tilagan holda safingiz hamisha but, qadamingiz mardona bo'lsin, deb qolamiz!

Hamire QDIRBAYEVA
DXX Chegara qo'shinlari



Uch avlod uchrashuvi

TAJIRIBA VA SHIJOAT UYG'UNLIGI

Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi Chirchiq garnizonida joylashgan harbiy qismlarning birida uch avlod uchrashuvi bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda turli avlod vakillari bir maydonda yig'ilib, o'z tajribasi, hayotiy saboqlari va yurt ravnaqi yo'lida amalga oshirib kelayotgan faoliyati bilan o'rtoqlashdi. Tadbir davomida harbiy sohada xizmat qilgan faxriylar jasorat va fidoyilikka boy hayot yo'lidagi voqealar haqida yoshlar bilan bo'lishdi. Ayniqsa, mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar, tinchlik va osoyishtalikning qadr-qimmati haqidagi suhbatlar yoshlar qalbida chuqur taassurot qoldirdi.

Yoshlar esa, o'z navbatida, zamonaviy bilim va ko'nikmalari, yangi loyihalari va orzu-intilishlari bilan faxriylarni quvontirdi. Bunday muloqotlar ikki avlod o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatni mustahkamlaydi. Uchrashuv davomida savol-javoblar, fikr almashuv asosida samimiy suhbat tashkil etilib, yoshlar o'zlarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha maslahatlar oldi.

Joriy yilning 24-fevral kuni bo'lib o'tgan yoshlar bilan muloqot chog'ida Prezidentimiz tomonidan har haftaning payshanba kuni vazirlik, idora va hokimliklarda "Yoshlar kuni" etib belgilanishi ta'kidlandi. Mazkur tashabbus yoshlar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammo va takliflarini bevosita o'rganish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Faxriylar va yoshlar muloqoti o'tmish tajribasi bilan kelajak orzularining uchrashuvidir. Ushbu tadbir jamiyatda birdamlikni kuchaytirishga, yoshlarni ma'naviy yetuk, mas'uliyatli va fidoyi insonlar etib tarbiyalashda muhim uchrashuv bo'ldi, desak,

adashmaymiz. Avlodlar o'rtasidagi ana shunday mustahkam aloqalar yurtimiz ravnaqi va taraqqiyotining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Tadbir yakunida barcha ishtirokchilar bunday uchrashuvlar avlodlar o'rtasidagi mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi. Uch avlod vakillarining bir davrada jam bo'lishi tajriba, kuch va kelajak uyg'unligining yorqin ifodasi bo'ldi.

Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati



"Ustoz-shogird" an'anasi



Jamiyatda o'qituvchining roli va shaxsiyati hamisha muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bugungi kunda oliy harbiy ta'lim muassasalarida ustozning vazifasi faqat kursantlarga fan asoslarini o'rgatish bilan cheklanmaydi. U nafaqat bilim beruvchi, balki harbiy kasb egasining fikrlash qobiliyati, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlarini shakllantiruvchi muhim shaxs hisoblanadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisi oldida zamonaviy qurolli mojarolar talabini hisobga olgan holda kursantlarni tayyorlash, muammolarga yechim topish qobiliyatini rivojlantirish va amaliy mashg'ulotlarda qo'llash, kompyuter savodxonligi va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni o'rgatish kabi masalalar bor.

HARBIY TA'LIMDA USTOZ VA KURSANT HAMKORLIGI

Bu vazifalar ustozning pedagogik salohiyati va shaxsiy namunasiga bevosita bog'liq. Zamonaviy oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisi kursantning faqat fan asoslarini o'zlashtirishini ta'minlab qolmay, balki uning axloqiy, intellektual va texnik rivojlanishiga ham yordam beradi. Ustozning bilimi, g'amxo'rliqi va shaxsiy namunasi kursantda kelajakda munosib harbiy mutaxassis sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Zamonaviy kursant faqat mashg'ulotlarda qatnashib, mavjud tushunchalar bilan qanoatlanib qolmasligi lozim. Uning asosiy vazifalari faqat fan asoslarini o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki amaliyotda ham samarali faoliyat yuritishga qaratilgan. U zamonaviy qurolli majorlar va texnologiyalarni o'rganish, sun'iy intellekt va kompyuter savodxonligini amaliy mashg'ulotlarda qo'llash kabi ko'nikmalarni egallashi kerak. Shu bilan birga, axborotni tanqidiy tahlil qilish va turli manbalardan ma'lumot olish qobiliyati, jamoaviy ish va individual mas'uliyatni muvozanatda bajarish kabi me'yorlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, zamonaviy kursantning roli faqat bilim olishda emas, balki bilimni tahlil qilish, qo'llash va jamoaviy hamkorlikda samarali faoliyat yuritishda namoyon bo'ladi.

Harbiy ta'limda sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari kursantlar bilimini mustaqil ravishda tekshirish, tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda alohida samaradorlikka ega. Bu usullar orqali kursantlar nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirib, tez va aniq qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasida kitobxonlikning ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Kitob kursantga nafaqat bilim va fikrlash qobiliyatini beradi, balki intizomni ham o'rgatadi, uning ma'naviy dunyosi va axloqini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kursant kitob o'qish orqali fikrlarini chuqurlashtirishi va mustaqil tahlil qila olishi zarur.

Ustoz va kursantlar o'rtasidagi hamkorlik nafaqat bilim berish, balki kelajak avlodni mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli va zamonaviy talablarga mos harbiy mutaxassislar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jaloliddin ATABULLAYEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
katta o'qituvchisi

Kuch – adolatda



QADIMG'I DAVRLARDA VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI

Vatanparvarlik shaxsning o'z Vatani, xalqi, uning tarixi, madaniyati va qadriyatlariga bo'lgan muhabbat va sadoqat tuyg'usidir. Bu tuyg'u insonning o'z yurtiga, ona zaminiga bo'lgan mehr-muhabbati, uning gullab-yashnashi yo'lida fidokorona mehnat qilishga tayyorligi, o'z Vatani himoya qilish uchun barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar eta olish kabi xislatlarida namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik tushunchasi tarixiy kategoriya bo'lib, turli davrlarda va turli mamlakatlar sharoitida uning mazmuni o'zgarib, boyib borgan. Zamonaviy tushunchada vatanparvarlik – bu nafaqat o'z Vatani sevis, balki uning o'tmishi, buguni va kelajagi uchun mas'uliyat his etish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish, jamiyat va davlat ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilish, milliy manfaatlarini himoya qilish uchun mas'uliyatni his etish kabi xislatlarni o'z ichiga oladi.

Qadimgi davrlarda vatanparvarlik tushunchasi, asosan qabila, urug' yoki shaharni himoya qilish, uning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda vatanparvarlik polisga (*shahar-davlatga*) sodiqlik, uning manfaatlarini uchun kurashish sifatida tushunilgan. Spartaliklar va afinaliklarning vatanparvarlik tushunchasi ularning davlat tuzumi, qadriyatlari va maqsadlariga muvofiq ravishda farq qilgan. **O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida vatanparvarlik tushunchasi diniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan holda rivojlangan.** Islom olamida vatanparvarlik g'oyalari "Hubbul Vatan minal imyon" (*"Vatanga muhabbat – iymondan"*) degan hadis orqali qo'llab-quvvatlangan. Bu davrda vatanparvarlik ko'pincha mahalliy hukmdorga sodiqlik, diniy qadriyatlarni himoya qilish bilan ham bog'liq bo'lgan.

Markaziy Osiyo tarixida Temuriylar davri (XIV–XV asrlar) siyosiy, madaniy va ilmiy yuksalishning yuksak namunasi bo'lib, bu davrda vatanparvarlik g'oyalari davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim mafkuraviy asos sifatida xizmat qilgan. Amir Temur tomonidan asos solingan saltanat mustahkam harbiy-intizom, ijtimoiy adolat va markazlashgan boshqaruv tizimi orqali taraqqiy topgan bo'lsa, bu jarayonlarning mafkuraviy poydevorida aynan yurtga sadoqat, xalq manfaatiga xizmat qilish va milliy qadriyatlarga hurmat kabi tamoyillar yotgan.

Amir Temurning "Kuch – adolatda" shiori nafaqat siyosiy hokimiyatni adolat asosida yuritish zarurati bildirgan, balki xalqning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlovchi g'oya sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. U o'zining mashhur "Temur

tuzuklari" asarida davlat rahbari, sarkarda va mansabdor shaxslarning xalq oldidagi burchi, Vatanga xizmat qilish majburiyati haqida aniq tamoyillarni belgilab bergan. Bu esa vatanparvarlikni siyosiy boshqaruv va davlat manfaatlariga sadoqat doirasida anglashga xizmat qilgan.

Temuriylar davrida vatanparvarlik tushunchasi faqatgina harbiy yo'l bilan emas, balki ilm-fan, madaniyat va ma'rifat orqali ham ifodalangan. Ayniqsa, Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek bu borada muhim o'rin tutadi. Uning rahbarligida qurilgan Ulug'bek madrasasi va Samarqand rasadxonasi ilmiy tafakkurning markaziga aylangan. Mirzo Ulug'bek o'zining astronomik tadqiqotlari, ta'lim-tarbiya tizimiga e'tibori va bilimdon ulamolarni qo'llab-quvvatlashi orqali Vatanga bo'lgan muhabbatni ilm bilan bog'lab ko'rsatdi. Uning faoliyati vatanparvarlikning ma'naviy-intellektual shaklini amalda ifodaladi.

Temuriylar davrida yaratilgan tarixiy, adabiy va falsafiy asarlarda ham vatanparvarlik yetakchi g'oya sifatida ilgari surilgan. Sharafiddin Ali Yazdiy, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy singari mutafakkirlar o'z asarlarida yurt ravnaqi, xalq farovonligi va milliy birlik g'oyalarini madh etgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy o'z she'riyati va nasriy merosida Vatanga muhabbat, xalq dardini tushunish, milliy qadriyatlarga sodiqlikni ulug'lagan.

Temuriylar tomonidan barpo etilgan me'moriy obidalar, madaniy-ma'naviy markazlar va ta'lim muassasalari ham vatanparvarlik g'oyalarining moddiy ko'rinishi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. Bu davrda davlat rahbarlari ilm ahli, san'atkorlar va me'morlarni qo'llab-quvvatlagan, bu orqali xalqda o'z yurti va madaniyatiga nisbatan iftixor tuyg'usini uyg'otishga harakat qilgan.

O'zbek pedagogikasida vatanparvarlik tushunchasi ko'p asrlik milliy-ma'naviy merosimiz, xalqimizning tarixiy tajribasi va milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda talqin etiladi. Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar o'z asarlarida vatanparvarlik g'oyalarini ilgari surgan. Masalan, **Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida vatanparvarlik tuyg'usini insonning eng oliy fazilati deb ta'riflagan.**

Sharq falsafasi tarixida chuqur ilmiy-nazariy qarashlari bilan alohida o'rin egallagan mutafakkir Abu Nasr Forobiy (870–950) o'zining boy ilmiy merosi orqali nafaqat mantiq, metafizika, siyosatshunoslik, balki axloqshunoslik va ijtimoiy taraqqiyot masalalarida ham yuksak g'oyalarni ilgari surgan. U yaratgan "Fozil odamlar shahri" (*"Madinat al-fazila"*) asari Sharq va G'arb falsafiy tafakkurining tutashgan nuqtasi bo'lib, unda ideal jamiyat qurilishi va fozil inson tarbiyasiga oid fikrlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu asarda Forobiy vatanparvarlikni nafaqat yurti va xalqiga muhabbat sifatida, balki ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy yetuklikning muhim ko'rsatkichi sifatida talqin qiladi.

Forobiyning fikricha, har qanday jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uni tashkil etuvchi a'zolarining, ya'ni fuqarolarning axloqiy kamoloti va ijtimoiy ongiga bevosita bog'liq. "Fozil odamlar shahri" asarida u ideal jamiyat modelini tasvirlar ekan, bu jamiyatda yashovchi har bir inson o'zining nafaqat shaxsiy manfaatlarini, balki umumiy farovonlik, ya'ni jamiyat va Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Bu yondashuvda vatanparvarlik faqat hissiy holat emas, balki ongli, irodaviy va axloqiy pozitsiya sifatida qaraladi.

Forobiy uchun vatanparvarlik tushunchasi ikki asosiy elementga ega:

1. Yurtga muhabbat – insonning tug'ilib o'sgan yurti, uning qadriyatlari, tili, madaniyatiga nisbatan mehr-oqibat va hurmat.
2. Yurt taqdiriga mas'uliyat – bu tuyg'uni amalda namoyon etish, ya'ni Vatan ravnaqi yo'lida ilm bilan shug'ullanish, adolatli faoliyat yuritish va jamiyatda ezigulikni qaror toptirish.

Forobiy davlatni inson ruhiyatining kengaytirilgan shakli deb biladi. Unga ko'ra, agar inson o'z qalbida ezigulik, adolat va haqiqatga intilsa, u jamiyatda ham shu qadriyatlarni qaror toptirishga intiladi. Shu jihatdan, vatanparvarlik Forobiya bu yurakdan boshlanadigan, ammo jamiyatda real amal bilan ifodalanuvchi ijtimoiy-axloqiy faoliyatdir.

Forobiy, shuningdek fozil shahar fuqarolari – bu yuksak ma'naviy sifatlar egasi bo'lgan, bilimli, mas'uliyatli, o'z yurtining farovonligi uchun harakat qiluvchi shaxslar, deb hisoblaydi. Bunday jamiyatda har bir inson o'z o'rnini anglab, Vatan ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Bu esa vatanparvarlikning chuqur falsafiy asoslari mavjudligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida:

"Vatan tuyg'usi – bu qalbdagi abadiy yonib turuvchi muqaddas his", deya vatanparvarlikni chuqur ruhiy-axloqiy mazmun kasb etuvchi tushuncha sifatida ta'riflaydi. Bu fikrda Vatanni sevis

faqatgina shaxsiy hissiyot emas, balki har bir inson qalbida bo'lishi lozim bo'lgan muqaddaslik, sadoqat va fidoyilik ramzi sifatida talqin etiladi.

Aynan shu yoshda o'quvchilarda insoniy fazilatlar, axloqiy me'yorlar, mehnatsevarlik, do'stlik, halollik, mehr-oqibat, tabiatga, kattalarga, maktabga hurmat kabi tushunchalar ilk bor shakllanadi. Ular hayot haqidagi tasavvurlarini ko'proq taqlid, kuzatish, qiziqish va savollar orqali o'zlashtiradi. Shu bois bu davrda berilgan tarbiyaviy yo'nalish, singdirilgan g'oya va qadriyatlar butun hayot davomida bola ongining asosiy tayanch nuqtasiga aylanishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki tarbiyalash, shaxsiy dunyoqarashni shakllantirish, milliy g'urur va Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otish vazifasini ham bajaradi. Har bir fan, har bir mashg'ulot bolani nafaqat o'qishga, balki yaxshi inson bo'lishga, yurti, tili, milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarashga yo'naltirishi kerak.

Shu davrda o'quvchilar ongiga singdiriladigan vatanparvarlik, xalqparvarlik, ona tiliga hurmat, o'zligini anglash, milliy qadriyatlarni qadrlash kabi tushunchalar ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, o'quvchining milliy bayramlarga, davlat ramzlariga, o'zbek tiliga, tarixiy shaxslarga bo'lgan hurmati uni ichki ongli ravishda o'z Vatani bilan bog'laydi. Bu esa kelajakda o'z kasbiga sadoqatli, xalqiga foydali, yurt ravnaqi uchun xizmat qilishga tayyor bo'lgan inson sifatida voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Vatanparvarlik tuyg'usi bolaning ongiga shunchaki so'z bilan emas, balki amaliy mashg'ulotlar, hayotiy misollar, tarixiy voqealar, xalq og'zaki ijodi, maktab hayoti, sinfda olib boriladigan tarbiyaviy suhbatlar orqali singdirilishi kerak. Bu orqali bola vatanparvarlikni hayotiy zarurat, ichki ehtiyoj sifatida anglay boshlaydi.

Bu yurt, bu millat egalari qanchadan qancha daholarni, dunyo tamadduniga hissa qo'shgan olim-u fuzolalarni, kuragi yerga tegmagan pahlavonlarni tarbiya qilgan.

Bugungi kunda dunyodagi cheksiz koinot sarhadlaridan tortib, matematik hisob-kitoblari gacha, hadis ilmidan tortib, tibbiyot bilimlarga bo'lgan barcha kashfiyotlar bizning bobolarimiz tomonidan amalga oshirilgan.

Mayor Jo'rabek NAZAROV, Chirchiq garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy orkestr boshlig'i

Yangilanish va ezgulik ayyomi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Navro'zni ulug'lash insonni ulug'lashdir!

Yurtimizga yana Navro'zi olam o'z sepini yoymoqda. Bu yilgi ko'klamning fayz-u tarovati o'zgacha. Zero to'xtovsiz yog'ayotgan bahor yomg'irlari dala-dashtga zeb berib, kuzgi bug'doyzorlarni yashnatmoqda. Shunday lahzalarda kishining qalbi jo'shib, bamisoli ko'klam toshqinlariday toshadi. Navro'z koinot va tabiat qonunlari, quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning tenglashuvi, kunning uzaya borishi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog'liq bo'lgan.

Xalqimiz Navro'zni azal-azaldan yangilanish, bunyodkorlik, ezgulik bayrami sifatida nishonlab kelgan. Navro'z tabiatda uyg'onishning boshlanishi bo'lgani sababli yurtimizda hamisha e'zozlangan. Shu bois bugun ko'ngillarda bahoriy iliqlik, kayfiyatlarda bahoriy jo'shqinlik hukmron. Buni ota-bobolarimiz azal-azaldan his etgan. Sumalak, halim, ko'ksomsa kabi tansiq taomlarimiz dasturxonlarga tortilib, Navro'zi olam katta tantana bilan nishonlangan. Hamal – amal kirib, tabiat uyg'onishi bilan xalqimiz, avvalo, dehqonning ishlariga qut-baraka tilagan. Navro'z sayillarida ko'klam taomlari tayyorlash borasida tanlovlar o'tkaziladi. Shuningdek, sumalak sayli, halim bazmi, darveshona, gul sayillari ham Navro'zni bezaydi. Navro'zdan keyingi tadbirlar dehqonlarga yangi mehnat mavsumi boshlanishidan darak beradi.

Navro'z bayrami har birimizni homiylikka, muhtojlarga ko'maklashishga, bir-birimizga yaxshilik qilishga da'vat etadi. Zero homiylik, mehr-muruvvat ko'rsatish xalqimizning qon-qoniga singib ketganki, bu ishlarni hech kim biron ta'ma yoki dovrucq qozonish uchun qilmaydi. Bu xayrli yumushlar xolisona, azbaroyi savob uchun qilinadiki, bunday kishilar, shubhasiz ikki dunyo saodatiga erishadi.

TARIX VA XALQ AN'ANALARI

Navro'z ko'pchilik Sharq xalqlari tomonidan ming yillar davomida milliy bayram sifatida keng nishonlanib kelinadi. Navro'z haqida turli laparlar, kuy-qo'shiqlar, she'r-u g'azallar, xullas yozma va og'zaki ijod durdonalarining barcha turlari mavjud. Navro'z haqida juda ko'plab adabiyot, tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, biroq uning qachon paydo bo'lgani aniq tarixiy faktlar asosida dalillab berilgan emas. Shu kungacha saqlanib qolgan afsona va rivoyatlar, qo'shiqlar tahliliga suyanib shuni aytish mumkinki, bu an'ana qadim davrlardayoq xalqimiz hayotidan mustahkam o'rin egallagan, o'sha

davrlardayoq ulusning ulug' kuniga aylanib ulgurgan.

Navro'zning shakllanish davri eng qadim zamonlardan, zardushtiylilikning paydo bo'lishigacha davom etgan asrlarni o'z ichiga oladi. O'zbek xalqining allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy **“Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar”** kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to'g'risida so'zlab: **“Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir”**, deydi.

Qadim-qadimdan Navro'z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha kunlarda, hatto urush-janjallar ham to'xtagan, gina-kuduratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlagan, ayrim mahbuslarning gunohidan o'tgan. Navro'z kishilarni tabiatga yaqinlashtirgan, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro uzviy aloqadorlikni aks ettirgan musulmon xalqlarining ajoyib va noyob madaniy-ma'naviy merosi.

Navro'z – har yili ilk bahorda nishonlanib, ming yillardan beri o'z nashidasi bilan kishilar qalbidan joy olgan, xalq sevgan shodiyona. Bu bayramning sug'orma dehqonchilikka bog'liqligi bor. Dehqonning ilk marta dalaga chiqishi **“Yangi kun”** – **“Navro'z”** deb atalgan. Bu bayram mehnatni ulug'lashga, sevishtga, undan lazzatlanishga, hayot shu mehnat orqasidan shirin ekanini odamlarga tushuntirishda katta ahamiyat kasb etgan.

Navro'zning tarixiy ildizlari miloddan avvalgi 2 minginchi yillarga borib taqaladi. **“Avesto”**da keltirilishicha, Navro'zning quvonch va shodlik ramziga aylanishi qavm va qabilalar o'rtasida ibtidoiy dunyoqarashning paydo bo'lganidan dalolat berib, zaminimiz xalqlarining tabiatga, uning yaratuvchilik kuchlariga, shuningdek suv, olov, havo, tuproqqa o'xshash mavjud unsurlariga sig'inish pallasiga to'g'ri keladi. Zotan, ularning olam

haqidagi diniy dunyoqarashlari tabiat voqealari hamda turmush tarzining mashaqqatlari asosida qurilgan bo'lib, tabiat qonunlarini ilohiy kuchdan ajrata olmasdi.

Navro'zning bir necha ming yillar davomida o'zgarmay, nishonlanib kelishiga sabab bo'lgan omillardan biri bu tom ma'noda xalq bayrami ekanidir. Bahor bayramlari insoniyat vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan bayramlardan biri bo'lib, ular odamlarning dunyo bo'ylab tarqalishi natijasida barcha yerlarga yoyilgan va keyinchalik, barcha xalqlarda turli an'analar, har xil shakl va turli nomlar bilan uyushtirilgan.

O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida Navro'z shunchalik keng tarqalib bordiki, u haqda so'z yuritmagani, uning madhini kuylamagan allomalar kam bo'lgan. O'rta asr va keyingi davrlarda Navro'zning xalq turmushi va ma'naviy hayotidagi mavqeyi, fayz-u tarovati, fazilat va hosiyati haqida qomusiy bilim egalari ajoyib fikr-mulohazalar bildirgan, go'zal she'rlar bitgan.

Navro'z odatda, bozor qoshidagi maydonlarda, shahar chekkalaridagi maxsus sayilgohlarda uyushtirilgan. Bayramning birinchi kuni ertalab, bayram boshlangandan keyin karnay-sumaychi mutriblar, dorbozlar va polvonlarning chiqishlari, kun o'rtasida musiqachilar, xonandalarning ijrolari, kechki payt esa sayillar, bazmlar uyushtirilgan. Bu fashning shohona taomi – sumalakka bag'ishlangan sayl ajdodlarimizning eng yaxshi udumlaridan sanalgan.

Sumalak sayli qadimdan kishilarda birdamlik, ahillik hissini tarbiyalab kelgan. Sumalak tayyorlanadigan joyga qo'ni-qo'shnilar bir hovuchdan un olib kelgan, birgalikda taom pishirgan, bir qozonda tayyorlangan ovqatni hamma baham ko'rgan.

Navro'z – xalqimizning yaratuvchanlik mehnati bilan bog'liq, orzu-umidlarini kuylagan, uning turmush tarzi, ma'naviyati, milliy ruhini xalq ijodi usuli va uslublari yordamida tarannum etgan, xalqimizning boy milliy san'atini, urf-odatlarini o'zida saqlagan bayram. U kishilarni, ayniqsa yoshlarni odamiylikka, do'stlikka, o'zgalarga hamdard bo'lishga, mehribonlikka, mehr-oqibatli bo'lishga undaydi.

Sharq xalqlarining ulkan bayrami tarixi, an'analari va hozirgi ko'rinishlariga, diqqatga sazovor ijobiy tomonlariga to'xtalib o'tamiz.

Birinchidan, u xalq hayotining tarkibiy qismi bo'lib, eng yirik hodisa, voqea, sanalarni qayd qilib, ularni nishonlash uchun imkoniyatlar yaratgan. Darhaqiqat, bayram shunday ruhiy-hissiy kayfiyatni vujudga keltirganki, unda hamma xursand, shod va baxtiyor bo'lgan.

Ikkinchidan, bayramlar hayotning davomi hisoblansa-da, vaqtning birxilligini buzib, unga muayyan o'zgarish baxsh etadi. Shu sababli qadimdan bayramlar o'ziga xos vaqt o'lchovi hisoblangan. Chunonchi, Navro'z – “yil boshi”ni nishonlash vaqti kelganda, odamlar umrlaridan yana bir yil o'tganini his qilgan.

Uchinchidan, xalq bayramlari, jumladan Navro'z hayotning eng yaxshi tomonlarini aks ettiradigan “ko'zgusi” bo'lib kelgan. Kishilar Navro'z kuni eng yaxshi xulqlarini namoyish qilgan, go'zal libos va kiyimlarni kiygan, lazzatli taomlar tayyorlagan, o'zlaridagi qobiliyatlarni namoyish etgan. Navro'z kuni yomonlar – yaxshi, xasislar – saxiy, xunuklar – go'zal, go'zallar yanada latofatli bo'lib ketar ekan.

To'rtinchidan, Navro'z ozodlik va erkinlik kuni hisoblangan. Chunki bu kun odamlar kundalik ish, vazifa, burch, tashvishlardan ozod bo'lgan. Bayram kunlari barcha tashvishlar, dard-u alamlar unutilgan, kishilar o'zini shod-u xursand bo'lishga shaylagan. Bu kuni odobsizlik, o'g'rilik, zo'ravonlik, fisq-u fasod kabilar unutilgan.

Beshinchidan, Navro'z kuni tenglik hukm surgan, hamma bir qozondan ovqat yegan, bir xil tomosha ko'rgan, birga sayilgohlarga chiqib, ko'ngil ochgan.

Oltinchidan, Navro'z kuni – tinchlik kuni hisoblangan, urushlar to'xtatilgan. Xafagarchiliklar unutilgan, o'zaro arazlaganlar yarashgan, tanishlar do'stlashgan. Bu bayramda shunday holat vujudga kelganki, unda omma ruhan birlashgan, hamjihatlik, do'stlik rishtalari mustahkamlangan.

Yettinchidan, Navro'z kunlarida vujudga kelgan ruhiy ko'tarinkilik kishilarni kelajakka ishonch bilan qarash, hayotni yanada go'zal qilishga undagan. Bu bayram arafasida kishilar bir-birini qutlagan, kelajak uchun yaxshi istaklar bildirgan, ishlariga muvaffaqiyat, omad, baxt tilagan.

NAVRO'Z BILAN BOG'LIQ BO'LGAN UDUM VA RASM-RUSUMLAR

Navro'z kuni tug'ilgan bolaning ismini Navro'z qo'yishgan. Shu kuni odamlar ota-onasi, yaqin kishilari, yigitlar unashilgan mahbubalari bilan diydorlashgan. Orasidan gap qochgan odamlarni, urishgan er-xotinlarni el og'alari Navro'z kuni yarashtirib qo'ygan.

Navro'zda atrof-muhit orastalanadi, ariq-zovurlar tozalanadi, hovli-bog'lar tartibga keltiriladi. Ko'chalar, maydonlar, hovlilar tozalanadi. Shu dasturxoniga 7 xil daraxt bargidan namuna keltirib qo'yiladi. Ular: majnuntol, zaytun, behi, anor, bodom, pista, yong'oqlar. Shular qatorida qatiq, sut, pishloq, tuxum, baliq va yonib turgan shamlar qo'yilgan! Sumalak tagiga olmasligi uchun qozonga yetti yoki o'n uch dona tosh tashlab qo'yiladi.

Navro'z kuni bo'y yetgan qizlar bir joyga to'planishib, chiroyli gulchambarlar yasashadi. Buloqdan ko'zalarga suv olib kelib, ichiga uzuk, sirg'a, tanga tashlagan. Keyin qo'shiq, laparlar ostida suvdan chiqazib olingan nishonlar baxt ramzi deb hisoblangan.

Bayram kuni odamlarning bir-birlariga shakar va shirinliklar hadya qilishi, gullar taqdim qilishi, bir-birlariga suv sepish kabi turli odatlar keng tarqalgan.

Navro'z kuni shirinliklar yeyish, eng muhim udumlardan biri bo'lgan. Navro'z tongi otganda bировga gap gapirishdan oldin uch qoshiq asal yalab, uch bo'lak (*xushbo'y*) mum tutsa, ko'p kasallarga shifo bo'ladi. Dasturxonga qo'yiladigan yana bir narsa bu katta idishga suv to'ldirib, unga ko'k barg (*ko'kat*) solib qo'yishdir. Bu odat yangi yil suvga va hosilga mo'l bo'lsin, degan, ma'noni bildiradi.

Navro'z – biz uchun o'zaro bahor va uyg'onish, yasharish va yangilanish, mehnat va bunyodkorlik fasli. Navro'z biz uchun o'zaro mehr-oqibat, qadr-qimmat, xayr-u saxovat va o'zlikni anglash ramzidir.

**Podpolkovnik
Jahongir QALANDAROV,
Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy
va mafkuraviy ishlar bosh
boshqarmasi bo'lim boshlig'i**

BUGUNGI KUNNING ustuvor vazifasi



Bugungi globallashuv sharoitida dunyodagi xavf-xatarlar ko'lam va shakli o'zgarib bormoqda. Agar ilgari xavf asosan harbiy to'qnashuvlar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda axborot urushi, kiberhujumlar, mafkuraviy ta'sir va yot g'oyalar orqali ham davlatlar barqarorligiga tahdid solibgina qolmay, yoshlar ongiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib bormoqda. Ana shunday sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Shu o'rinda, Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda, **“Yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berishimiz zarur”**, degan fikrlarini ta'kidlash o'rinli.

Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida, kishilarning ongi va qalbida vatanparvarlik g'oyasini shakllantirishda ma'naviy meros va tarixiy xotirani tiklash, uni o'rganish va rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, jamiyat va davlatda tinchlikni asrab-avaylash, uni qadrlash masalasi ham bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biriga, aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida 2023–2027-yillarga mo'ljallangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo'lib, u besh bosqichni o'zida mujassam etadi. Mazkur konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash **“Vatan – ulug', burch – muqaddas!”** konseptual g'oya ostida tashkil etilib, unda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilangan.

Oddiy va sodda qilib tushuntiradigan bo'lsak, **vatanparvarlik** – o'z Vatani, ona yurti, xalqini cheksiz sevis, Vatan manfaatlarini uchun jonbozlik ko'rsatishni anglatuvchi tushuncha.

Harbiy-vatanparvarlik insonning o'z mamlakatidan faxrlanish tuyg'usini, uning taqdiriga daxldorlik hissiyatini, mustaqil Vatani himoya qilish hamda xavfsizligi uchun fuqarolik burchi va mas'uliyatini anglab yetishdir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga qaratilgan davlat va nodavlat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Demak, bildirilgan fikrdan shuni anglashimiz mumkinki, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari, turli soha vakillari, qolaversa, jamiyatning har bir a'zosi mas'uldir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish faqat harbiy xizmat bilan bog'liq jarayon bo'lib qolmay, balki yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini, yurt himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, buyuk sarkardalarimiz bilan faxrlanish hamda fuqarolik burchlarini chuqur anglatishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Barcha ta'lim tashkilotlarida yoshlarni kichik yoshdan Vatanga cheksiz sadoqat ruhida, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar ta'lim-tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Jumladan, **Maktabgacha ta'lim tashkilotlari** tarbiyalanuvchilarida Vatanga muhabbat, uni asrab-avaylash kabi vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, harbiy xizmatga hurmat va faxr hissini uyg'otish, vatanparvarlik ruhidagi she'r va qo'shiqlar o'rgatish,

ertak va hikoyalarni yetkazish, rasm chizish kabi tanlovlar orqali tarbiyalanuvchilar qamrab olinmoqda.

Umumta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlarida jasurlik va mardlik, faxr va iftixor, buyuk sarkardalarimiz merosiga hurmat va g'urur tuyg'ularini rivojlantirish, vatanparvarlik, shukronalik, Vatanga muhabbat va sodiqlik tuyg'ularini mustahkamlash, milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini yoshlarga tushuntirish, harbiy xizmat to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish va qiziqishlarini oshirish, shuningdek yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi hamda milliy qadriyatlar va urf-odatlarimizni targ'ib qilishga yo'naltirilgan tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlari Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablar, umumta'lim maktablari negizida tashkil etilgan **“Jasorat maktablari”da o'tkazilayotgan “Chaqiriluvchilar kuni”, “Harbiy qismda bir kunim”, Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirokida “Uch avlod”, “E'zoz”, “Ehtirom”, “Mening armiyam – mening faxrim!”** mavzusidagi uchrashuvlar, namunal harbiy xizmatchilarning yoshlar bilan motivatsion suhbatlari o'quvchi-yoshlarda o'zgacha taassurot qoldirmoqda.

Ma'lumot o'rinda shuni aytish joizki, hozirgi kunda axborot oqimining jadal almashinuvi jarayonida yoshlar orasida internetdan maqsadsiz foydalanish va ijtimoiy tarmoqlarda mashhurlikka intilishlar soni oshib bormoqda. Bugungi kunga kelib, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Qirg'iziston va Qozog'iston Respublikalari, shuningdek

Hindistonda ham 16 yoshga to'lmagan o'smirlar uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga cheklov qo'yilishi xavf oqimining yuqoriligiga dalildir.

Xalqimizda **“Birni ko'rib, fikr qil – mingni ko'rib, naql qil”** degan ibora bor, shunday ekan, yoshlar tarbiyasida zamon talabiga mos yechimlar zarur.

Birinchidan – yoshlar media va raqamli savodxonligini oshirish, ularning axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish.

Ikkinchidan – nazariy ma'ruzalar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy mashg'ulotlar – turli sport musobaqalari, harbiylashtirilgan tanlovlar, yoshlar o'rtasida qutqaruv mashqlari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni kuchaytirish lozim.

Uchinchidan – oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi mustahkam bo'lishini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda tarixiy yondashuv va milliy qadriyatlardan foydalanish, ularda ona Vatanga muhabbat va sadoqat, o'z tarixiga hurmat, xalqi o'tmishidagi yorqin sahifalardan faxrlanish va yurtimizda yashovchi barcha xalqlarga nisbatan hurmat hamda O'zbekiston mustaqilligini himoya qilishga tayyorlashdan iborat.

Bunday fazilatlar hissi va tarbiyalangan yoshlar hech qachon adashmaydi, mamlakatimiz, jamiyatimiz ravnaqi yo'lida kamarbasta bo'lib xizmat qiladi.

Mayor Elbekjon ASHIROV,
Mudofaa vazirligi
Chaqiruvga qadar
boshlang'ich tayyorgarlik va
yoshlar bilan ishlash departamenti
katta ofitseri



MERGANLIK SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIY ETISHI

Harbiy harakatlarni rejalashtirish har bir davr talabi asosida rivojlana borib, bugungi kunda mazkur soha takomillashuvning yuqori bosqichida. Jangovar harakatlarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilayotgan innovatsion strategiya va texnologiyalar qo'shinlar tarkibida butunlay yangi turdagi qurol-aslaha, jihozlar va turli ixtisoslikdagi harbiy mutaxassislarni shakllantirdi.

HARBIY MUTAXASSISLAR orasida razvedka, kuzatuv, josuslik va uzoq masofadan yuqori aniqlikda otish bo'yicha muhim ko'nikmalarga ega bo'lgan snayper miltiqlari bilan qurollangan merganlar alohida o'rin tutadi. Merganlar qadimgi tarixdan shu kungacha bo'lgan deyarli barcha janglar, sovuq urush va zamonaviy harbiy mojarolarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Bugungi kunda barcha davlatlar armiyalarida mergan bo'linmalari mavjud bo'lib, ular yuqori aniqlikdagi qurollar, kattalashtiruvchi optik qurilmalar, o'q-dorilar bilan ta'minlangan. Biroq merganlik atrof-muhitdan yashirinish va nishonni aniqlashga kuchli bog'liq bo'lgani

sababli har doim ham mutlaq ustunlikni kafolatlamaydi.

MERGANLAR FAOLIYATI, harakat uslublari har bir davrda o'zgarib borsa-da, ularning asosiy xususiyatlari va mohiyati hanuz o'zgarmagan. Mutaxassislarning fikricha, zamonaviy merganlik-snayperlik birinchi marta Britaniya armiyasida Baker miltig'i yordamida qizil kiyimli saf askarlariga qarshi qo'llanilishi bilan

mustaqil jangovar yo'nalish sifatida shakllangan.

XVI asrda Shveysariya merganlari matchlok miltiqlari bilan Gabsburg monarxiyasi armiyasi tarkibida xizmat qilgan. Keyingi asrlarda nemis, ingliz, irland, amerikalik va kanadalik merganlar yirik kalibrli, narezli, oldindan zaryadlanadigan qurollardan foydalangan va ularning ustunligi Ispaniya merosxo'rlik urushi, fransuz-hind urushlari va Amerika mustaqillik urushi kabi janglarda yaqqol namoyon bo'lgan.

JANUBIY AFRIKADAGI Boer komandolari Buyuk Britaniyaga qarshi Boer urushlarida ilk orqa tomondan zaryadlanadigan takrorlovchi miltiqlardan foydalangan. Bu esa inglizlarni yuqori kalibrli qurollar va yumshoq uchli o'qlar bilan jihozlangan merganlarni tayyorlashga majbur qilgan. Keyinchalik yarim avtomatik Pedersen miltig'i, kuchli patronlar va turli tajribalar snayperlar mahorati rivojiga hissa qo'shdi. Birinchi jahon urushida Buyuk Britaniyalik snayperlar teleskopik ko'rish moslamalari o'rnatilgan boltli miltiqlar bilan qurollantirildi.

XX ASRDA esa merganlik tushunchasi yanada mukammallashdi. Aniq optik kuzatuv priborlari, teleskopik ko'rish moslamalari va ishlab chiqarish texnologiyalarining rivoji merganlik san'atini yangi bosqichga olib chiqdi. Hozirgi kunda merganlar maxsus qurollar, ovoz so'ndirgich, termal va tungi ko'rish moslamalari, dronlar va kompyuterlashtirilgan tizimlardan foydalanmoqda. Ayni davrda mergan qurollarining bir qancha turlari mavjud bo'lib, ularning ba'zi birlari bizning Qurolli Kuchlar

tizimida ham faol tarzda foydalanilib kelinmoqda.

Merganlar dushman qo'shinlari orasida qo'rqinch, vahima va tartibsizlikni keltirib chiqaruvchi kuchli psixologik vahima uyg'otuvchi mutaxassislar hisoblanib, ular dushmanning boshqaruv tizimlariga aniq zarba berish orqali, butun jang taqdiriga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

GREK AKADEMIGI harbiy-ilmiy tadqiqotchisi George Koukoudakisning e'tirof etishicha, snayperlar maxsus psixologik tayyorgarlikdan o'tgan yashirin jangchilardir. Urushdan keyin ular avvalgi shaxsiyatiga qaytishda qiyinchiliklarga duch keladi. Yashirinlik, aybdorlik hissi, tushlar va xotiralar ularni ta'qib qiladi. Bu esa ijtimoiy yakkalanish va shaxsiy inqirozga olib keladi, deydi u.

XULOSA qilib aytganda, tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar, qurol-aslaha va taktik yondashuvlarning takomillashuvi merganlarning imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirib bormoqda. Ular jang maydonida nafaqat yuqori aniqlikdagi zarbalari, balki psixologik va strategik ta'siri bilan ham muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, merganlar harbiy operatsiyalarning ajralmas qismi bo'lib, ularning tayyorgarligi, texnik ta'minoti va ruhiy barqarorligi zamonaviy Qurolli Kuchlar samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

**III darajali serjant
Nodirjon NURIYEV,
Merganlarni tayyorlash markazi
katta yo'riqchisi**



Hikoya

YAYRA

Ergash ishdan kelsa, uyda mehmon bor ekan. Kiyimlarini almashtirib, oshxonada kuymanayotgan xotinining oldiga bordi. Uning salomiga bosh irg'ab qo'yarkan, mehmonxonaga ko'zi bilan ishora qilib, "Kim?" deb so'radi.

– Tog'angiz Mergan qassobning nevarasi emish, – dedi xotini ovozini pasaytirib.
– O'tgan yili universitetga o'qishga kiribdi, matematik bo'larmish. Dam olish kunlari yotoqxonada bir o'zi qolar ekan. Dugonalarining uyi yaqin bo'lgani uchun uylariga ketarkan. Yolg'iz qolgisi kelmay, sizni qora tortib kelganmish, qarindoshimiz deb.

– Bu yerda yashashimizni qayerdan bilibdi? – so'radi Ergash astoydil ajablanib.
– Bilmasam, – dedi xotini ham hayron bo'lib.

Er-xotin suhbatini oshxonaga kirib kelgan qiz bo'ldi.

– Assalomu alaykum, men Maftunaman, – deb o'zini Ergashga tanishtirdi. – Manzilingizni bobom aytdi. Uzilib ketgan bo'lsak ham, baribir qarindoshimiz, qora tortib borsang, "ket" deyishmas, dedi.

Erkak qizga qarab, g'alati bo'lib ketdi. Qandaydir qadrdon qiyofa... Yo'q, yo'q, odam odamga o'xshaydi-da. Qarindosh ekan buning ustiga. Keyin Maftunaman, dedi-ku. O'xshatdim. Haaa, uning sochlari oltindek edi, qo'ng'iroq-qo'ng'iroq. U emas.

– Himm, nega ket deyimiz, yaxshi qilibsiz, – dedi u parishon holatda. – Qishloqdagilar yaxshimi?

– Hamma yaxshi, – dedi unga kulib boqqanicha Maftuna. Keyin Ergashning xotiniga yuzlandi, – Yanga, keling, yordamlashay, idishlarni yuvaymi?

Ergash qizdan yana nimalardir so'ragisi keldi. Xotini bilan bir pasda el bo'lib olganini ko'rdi-yu, indamay, ortiga qaytdi.

Kechki ovqatni hamma xush-xandon tanovul qildi. Maftuna quvnoq qiz ekan. O'smir yoshdagi o'g'li Hayotbek bugun tanigan qarindoshini allaqachon Maftuna emas, opam deya boshlabdi. Qizi Sevinch ham unga allanimalari bilan maqtanadimi-ey. Qizning oilasi bilan til topishib olganiga Ergashning g'ashi ham keldi. Umrida ko'rmaganlari bir qiz bilan bunchalik yaqinlashib ketish... Tavbaa.

– Ada, Maftun opam matematikani qoyilmaqom bilar ekanlar, uy vazifamni osongina tushuntirib berdilar.

– Menga ham, – dedi qizchasi kemshik tishlarini ko'rsatib kulganicha.

Matematika... Ergash yoshligida bir matematikni bilar edi. O'shani so'ragisi keldi-yu, tilini tiydi. Ko'ngilsiz ishlar yodga tushadi. Nima bo'lsa, bo'lib o'tdi, ketdi. Hech narsani ortga qaytarib bo'lmaydi.

Maftuna dam olish kunlari kela boshladi. Endi unga hamma o'rganib qolgandi. Ayniqsa, aka-singil dam olish kunlarini intizor kutadigan bo'ldilar. Qiz ularning ikkisini ham matematikaga oshiq qilib qo'ydi. Ularga qiziqarli topshiriqlar berar, matematika – hayot ekanini oddiy ikir-chikirlarda ko'rsatardi. Ota-onasi ham bolalaridagi o'zgarishdan xursand edi. Bir dam olish kunida Maftuna kelmadi. O'qishidan ortmagandir, deb qo'ya qoldilar. Keyingi safar ham kelmaganida xavotir oldilar.

– Ada, Maftun opamni o'qish joyiga borib, surishtirib kelaylik, tinchlikmikan? – dedi Hayotbek o'ylanib. – Oxirgi paytlar ancha ozib qoluvdilar, og'rib qoldilarmikan? Aksiga olib telefon ishlatmaydilar.

– Haaa, – deya unga onasi qo'shildi, – rost, juda ozib ketdi-ey, yoshiga yarasha ishtaha bilan ovqatlanishini ko'rmadim. Adasi, yaxshi qiz ekan, birinchi ko'rganimdayoq xuddi jigarimdek yaxshi ko'rib qoldim. Surishtirib kelimizmi?

– Qaraylik-chi, – dedi Ergash, – shu dam olish kuni ham kelmasa, universitetga borib, bilib kelamiz.

Bolalar hoziroq borib bilgilari kelib tursa ham, chor-nochor ko'ndilar. Aslida Ergashning ham Maftuna haqida bilgisi kelayotgandi, biroq xotinidan istihola qildi. Qarindosh bo'lsa ham, qiz bolaning ortidan so'rab yurish noqulay edi.

Shunday kunlarning birida xotini yangilik aytib qoldi:

– Adajonisi, opam bilan gaplashdim, eshitsangiz, og'zingiz ochilib qoladi, – dedi bidirlab. – Ayb o'zimda. Hammaga ishonib ketaveraman. Bir ona suti og'zidan ketmagan qiz...

– Qisqa qil! – dedi zarda aralash Ergash, gap kim haqida ekanini sezib, – nima gap ekan?!

– Qassob tog'angizning Maftuna degan nevarasi yo'q ekan, o'zi umuman, qiz bola nevara ko'rmagan ekan. O'g'illarida ham, qizlarida ham qiz yo'q emish. Uymizga kelib-ketib yurgan bu qiz kim bo'ldi?!

– Men qayerdan bilay? – deya jahl qildi Ergash. – U-bu narsalaring joyidami, "qarindoshim" ko'tarib ketmabdimi?

– Yo'o'q, qo'li egri qiz emas, u, – dedi u ko'zlarini katta-katta ochib, – yomon niyatli qizga o'xshamaydi. Faqat nega "qarindoshingizman" deb yolg'on gapirganiga tushunolmayapman. Bolalaringiz ham mehr qo'yib qolgan. Ularga nima deymiz?

– Bo'ldi, gapni shu yerda tugat! – dedi Ergash qovog'ini osiltirib, – ertagayoq universitetga borib surishtiraman. Bolalarga hozircha hech nima demay qo'yaqol.

Ertasi kuni esa... Qizning familiyasini ham bilmas ekan. Avvaliga ma'lumot berishni rad etishdi. U ham universitetda ishlashini bilganlaridan keyin vaziyat o'zgardi. Aksiga olib, Maftunalar ham ko'p ekan. Ammo ulardan birortasi Ergash qidirgan qiz emas edi. Shundagina o'zini aldanganini his qildi. Alami keldi. Nega ishondi? Shu qadar go'limi? Inson o'zini alday olmaydi. Shunchaki, ishongisi keldi.

Ancha yillar avval g'o'rlikmi, o'rlikmi sabab tark etgan go'shasidan bir mujdadek keldi, bu qiz. Aldanganini jahli chiqayotgan bo'lsa-da, ko'nglining allaqayerida "oilamga zarari tegmayotgan edi" degan ojizgina oqlov ham bor edi.

O'z xayollari bilan bo'lib, qarshisidan kelayotgan maktabdoshini payqamay qoldi. "Ergash!" deb chaqirganida o'ziga keldi. Quyuqqina salom-alik qildilar. Universitetda biolog olimlar yig'iniga kelibdi.

– Kelayotib, onkologiyaning oldida ustoz Elbek akani ko'rib qoldim, – dedi Ergashga sinovchan tikilib. – Mazalari yo'qmi deyman, ancha o'zlarini oldirib qo'yibdi. Kelbatlari uchun Alpomish ustoz derdik-da, bilasizmi, shu kunga qadar ular kabi yana bir kuchli matematikni ko'rmadim. Uncha-muncha professorni yo'lda qoldiradigan bilimi bor. Avvaliga tanimadim, ovozipdan tanib qoldim, telefonda kim bilandir gaplashayotgan ekan. Men bilan ruhsiz gaplashdilar. Uyga olib ketaman, degan edim, bugun qaytaman, dedilar.

Ergash onkologiya kasalxonasini eshitib, yuragi bezovtalandi. Otasi ham saratonga chalinib, erta vafot etgan edi. Nahotki, Elbek akasi ham... Tili zo'rg'a aylanib:

– Himm, xabarim bor, – deb yolg'on so'yladi.

Qarshisidagi odamning o'tkir nigohlaridan ko'zlarini olib qochdi va shosha-pisha xayrlashdi. Mashinasining oldiga kelib, serryayib turib qoldi. Maktabdoshi aytgan kasalxona shundoqqina qarshisida, katta ko'chaning narigi tomonida edi. O'sha tomonga qarab yugurgisi keldi. Biroq... Nima deb boradi? Qaysi yuz bilan boradi? Akasidan yuz o'girib ketish darajasida o'zi nima bo'lgan edi?! Borsa bo'ladi-ku? Borolmayapti. Bormasa, chap ko'ksi yonyapti. Qandaydir achchiq, kuydiruvchi otash uyg'ongandek. Shunday o'ylar girdobida kasalxonaga tomonga qarab turib qoldi. Biroz muddat shunday turdi-da, o'sha tomonga qarab ildam yurib ketdi.

Ma'muriyatga qarab yurayotib, to'xtab qoldi. Undan uch-to'rt qadam narida, yo'lak chetidagi o'rindiqa akasi Elbek oppoq boshini xam qilib o'tirardi. Ergash sekin

uning oldiga bordi. Past ovozda "Aka" deb chaqirdi. Erkak ilkis boshini ko'tardi, katta-katta ko'zlari chaqnaq ketdi, o'midan turib pichirlagandek "Ergash!" dedi. Aka-uka mahkam quchoqlashdi. Ikkisining ham ko'zi to'la yosh. Ikkisining ham bir-biriga aytar so'zi ko'p, ammo tillariga tayinli so'z kelmadi. Qo'llarini qo'yib yubormasdan, yonma-yon o'rindiqa o'tirdilar.

– Kasallanib qoldingizmi? – so'radi akasiga termilib Ergash.

– Koshkiydi, men kasal bo'lsam...

Jiyaning Yayra, Yayrang kasal, – erkakning ko'zlaridan yosh oqdi.

– Yayrami? – dedi Ergash yurak-bag'ri ezilib, – u hali juda yosh-ku...

– Bu dard yosh tanlamas ekan, olti oydan beri Yayraning ko'zlariga qarab yashayapmiz.

– O'zi qani? Yuring, meni yoniga olib boring.

– Muolaja olyapti, uch-to'rt soatsiz chiqmaydi.

– Doktorlar nima deyapti?

– Umidvormiz... hammamiz umid

qilyapmiz. Baribir yuragim bezovta, o'ylarimda ham Yayra, tushlarimda ham Yayra. Universitetga o'qishga kirganida hammamiz quvongan edik. Oradan bir yil o'tib, shu dard... Qizimga balo yopishdi Ergash.

Shunday deb boshini ukasining yelkasiga qo'yib chuqur xo'rsindi.

– Ergash, – dedi past ovozda, – nega meni yolg'iz tashlab ketding, a? Sensiz qanotlarim qayrilib qolishini o'ylamadingmi? Ukasini ota uyiga sig'dirmadi, degan ta'nalarga ko'mib, ketding-qolding, ortingga bir qayrilib qaramading-a, o'jar. Nega, a, nega? Meni bir martagina eshitsang, nima bo'lardi?

– Yoshlik qildim, enam men bilan emas, siz bilan yashayman deganiga chiday olmadim, qattiq xafa bo'lganman. Meni odam o'rmda ko'rmayapti, deb jahl qilganman. Uylanishda ham enamning gapiga kirmagan edim. Shuning uchun men bilan yashagisi kelmaydi, xotinimni yomon ko'radi, deb o'yladim. Rostdan ham, qayerdaligim bilan biror marta bo'lsin qiziqmadi. Otam tirik bo'lganida, bunga yo'l qo'ymagan bo'lardi...

– Uka, sen juda qaysarsan! – deb uning gapini bo'ldi akasi. – Rahmatli enam otamdan keyin menga suyanib qolgan edi. Axir uning to'ng'ichi edim, sendan o'n yosh kattaman. Enam ikkimiz seni har vaqt bola deb bilar edik. Seni ayab, shu qarorga kelgan edi. "Ergashning oyog'iga tushov bo'lmayin, meni deb shu qishloqda umri o'tmasin, olim bo'lgulik siyoqi bor, sen meni deb qishloqqa qaytganing ham yetar", deb ko'p takrorlardir. Sen bo'lsang... Darrov lov etib yonib ketding. Ko'ch-ko'roningni ko'tarib ketganingdan keyin, kasalga chalinib qoldi. "Xabar olib tur, o'rlik qilib ketib qoldi, ich-ichidan pushaymon yeb yurgandir, bolaligidan shunday fe'li bor", deb xayoli har doim senda bo'ldi. O'shanda, ketganingdan bir yil o'tib, enamning ta'ziyasiga kelganingda bir-ikki kun yonimda qolasan, deb o'ylovdim. Yana hech so'z demay, ketding-qolding. Xato qildim, deb qiynalayotganingni bilardim. Lekin sen o'lsang o'lasanki, xatongni tan olmayсан. O'n besh yil-a?! O'n besh yil...

– Aytam, ishonmaysiz, juda afsus chekdim, o'zimni ayblayman. G'o'rlik qildim... Enamdan achchiqlanardim yana enamni sog'inardim. Vaqt o'tgani sari ortga qaytish qiyin bo'laverdi. Yuzimga qaramaysiz, deb o'ylardim.

– Sen ota-onamning menga qoldirgan eng qimmatli omonatidan. Qanday qilib yuzingga qaramasligim mumkin?!

– Aka... kechiring...

– Eh, sen qaysar bola, hech bo'lmasa, kechirim so'rashni o'rganibsan-ku, – dedi Elbek uni boladek erkalaib, bo'ynidan mahkam qisib olarkan.

*Yaqin bo'lsa, tishlasharlar,
Uzoq bo'lsa, kishnasharlar.
Ota so'zimiz.*

– Aka, hozir Yayra chiqsa, sizlarni to'g'ri uyga olib ketaman.

– Sen hozir ishingdan qolma, boraver.

Yayra kasalini yashiradi, unga achinib qarashlarini yoqtirmaydi. Seni bu yerda ko'rmay qo'ya qolsin. Unga o'zim yotig'i bilan tushuntiraman. Keyin birga boramiz.

– Manzilni telefoningizga tashlab beraman.

– Shart emas, manzilingni yaxshi bilaman.

Ergash akasiga qarab, hang-mang bo'lib qoldi.

– Kimdan bildingiz?

– Uyni sen uchun o'zim qidirib topganman, ishxonangga yaqin joydan. Professor ustozingga vaziyatni aytсам, tushungan. O'ylaysanki, "Ergash uydан chiqib ketdi", deb obi-diyda qilib o'tiraman. Hamma narsadan xabardorman. Ishing, uying, mashinang, bolalaring, kelinning ilmiy ishi...

– O'zim ham hayron bo'lgandim, shunday uy yarim bahosidan ham past sotilganiga, ustoz qarzidan kechganiga... Ko'nglim sezardi, bu ishlarning ortida turganingizni sezardim, ammo qanday, kimdan so'rashni bilmasdim. Qanday qilib... Sizlarni xafa qilib kelgan bo'lsam?

– Ergash, yodingda bo'lsin, bolalarim o'z yo'liga, mening sendan boshqa yaqinim yo'q. Sen mening yagona jigarimsan, biz et bilan tirnoqmiz. Endi bor, qolgan gaplarni uyingda gaplashamiz.

Uka akasining yonidan zo'rg'a qo'zg'aldi. Eshitganlaridan lol edi. Eng og'ir paytlarda uni kimdir qo'llayotganini sezardi, taxmin qilardi va yana ikkilanar edi. Uyga qorishiq tuyg'ular bilan hayajonlanib qaytdi.

Bolalari baravariga uning istiqboliga chiqdi. Salomlashib bo'liboq, Maftunani so'rashdi. Xotinining ham quloqlari ding bo'ldi.

– Qo'ying o'sha yolg'onchi qizni, sizlarga boshqa yangiligim bor, – dedi ko'zlari yonib.

– Bugun biznikiga akam, Elbek amakingiz qizi Yayra bilan kelyapti. Mening Yayram, Yayra opangiz, oltinsochli jajji jayronim keladi. Men uni judalar sevardim, yer-u ko'kka ishonmay, qo'ldan qo'ymasdik, qiqir-qiqir kulgilarini hech unutmoldim, sog'inardim. Bugun u keladi, jajji jayronim keladi, qani, tayyorlaning, mehmonlarimizni bir xursand qilaylik. Ammo opangiz biroz xasta, ko'ngliga qarasangiz, sevinaman.

Xotini quvonib ketdi. Akasisiz erining hayoti kemtik ekanini u hammadan ham yaxshiroq bilardi. Qanday yaxshi ish bo'libdi. Qiziq, ular qanday qilib... Hay mayli, obdan surishtirishga ulguradi hali. Hozir tayyorgarlikni boshlash kerak. Jajji Yayra ham ulg'ayib qolgandir? Hoynahoy, gozal qiz bo'lgan, ovsnimning quyib qo'ygandek o'zi edi. Xudoga shukur-ey, shu kunlarni ham ko'rар ekanmiz.

Eshik qo'ng'irog'i chalinishi bilan aka-singil yugurishdi. Ularning ortidan er-xotin ergashdi. Oldinma-keyin eshikdan kirgan ota-qizga hammalari hayron qarab qoldilar. Ostonada otasining qo'lidan tutgan qiz... Maftuna edi. Bolalar amakilarining salobati bosibmi, tortinib turardilar. Shu payt ularni battar hayron qoldirib, Maftuna boshidan yasama sochini oldi. Uning bir tola ham sochi yo'q edi. Ergash qizga yaqin bordi. Yuzini kaftlari orasiga olib, "Yayram, jajji jayronim, sen meni topib kelding... ko'r ekanman", dedi va avaylab bag'riga bosdi. Ko'ksiga bosh qo'yib erkalanib turgan jiyanining taqir boshiga yuzini bosib, yelkalari silkindi. Xotini kelib, ikkovini quchdi va baralla yig'lab yubordi, ularga bolalari qo'shildi... Elbek bir chetda lablarini qattiq qimtib, ulardan ko'z uzmay turardi.

Bu ko'zyoshlar bilan kechayotgan juda og'ir diydor edi. Qaynoq ko'zyoshlar obirahmat yanglig' qalblarni tozartirib, sevinchga, mehrga, umidga joy ochardi.

Inobat NODIRSHOH

Mulohaza

YASHIL HUDUDLAR – hayot kuchi

Shaharlardagi son-sanoqsiz osmono‘par binolar va hech qachon tinmaydigan transport shovqini orasida bir sokin haqiqat yashirin – tabiat. Biz yashil hududlarga muhtojmiz. Daraxtzorlar ko‘zni quvontiradigan bezak emas, ular hayotimiz uchun jismoniy, ruhiy va hissiy jihatdan zarur. Keling, oddiygina “Bor bo‘lsa, yaxshi” emas, balki haqiqatan zarur bo‘lgan yashil hududlarning ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

Zamonaviy shaharlar bizga ko‘pincha katta yo‘qotishlar evaziga taqdim etiladi. Masalan, eng so‘nggi zamonaviy texnologiyalar, yuqori tezlikdagi internet, tun-u kun ishlaydigan do‘konlar va hokazo. Lekin bu qulayliklar ortida haqiqiy hayotdan uzilish, insoniyatni bir vaqtlar boshqarib turgan tabiiy muvozanatdan uzoqlashish kabi yo‘qotishlar bor.

Statistika ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, bugunga kelib, dunyo aholisining 55 foizdan ortig‘i shaharlarda yashaydi, 2050-yilga borib, bu ko‘rsatkich 68 foizga yetadi. Ammo texnologik yutuqlariga qaramay, shaharlar havosi odamlarni bo‘g‘ishi mumkin, tinimsiz hayot sur‘ati, cheki yo‘q shovqin-suron va keskin yashash muhiti shaharliklarni asabiylik, xavotir va hatto depressiyaga duchor qiladi. Aholining ruhiy salomatligi bo‘yicha muammolar shaharliklarda qishloqdagilarga qaraganda ancha yuqori ekani bejiz emas.

Yashil hududlar shaharlarning barqarorligi uchun ham nihoyatda muhimdir. Bilamizki, beton va asfalt issiqlikni o‘zida ushlab qoladi va shahar hududlarini atrofdagi qishloq joylariga qaraganda ancha issiq qiladi. Daraxtlar soyasi va o‘simliklar esa haroratni pasaytirib, shaharlar ichida kichikroq, yoqimli iqlim zonalarini yaratadi. Shu bois daraxtlarni “tabiiy havo tozalagichlar” deyish mumkin, chunki ular havodagi karbonat angidridni yutadi va kislorod ishlab chiqaradi. Shu tariqa ekologiya tozalanadi va ifloslanish kamayadi.

Oddiygina misol, singapurliklar tabiatni shahar hayotiga uyg‘unlashtirish orqali shaharsozlikni qayta belgilagan. Ularning “Bog‘lar shahri” konsepsiyasi natijasida vertikal bog‘lar, tom usti o‘rmonlari va yam-yashil jamoat bog‘lari paydo bo‘lgan. Natijada Singapur nafaqat dunyodagi eng yashil shaharlardan biriga aylangan, balki iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarga ancha bardoshlidir.


Agar yashil hududlar shunchalik umumiy foydaga ega bo‘lsa, nega ular hamma joyda mavjud emas? Javob esa ko‘p hollarda siyosat, iqtisod va ko‘pincha tor fikrlashda. Shahardagi yer juda qimmat, yashil hududlar esa darhol moliyaviy foyda keltirmaydi. Biroq yashil hududlarning shahar hayoti

uchun ahamiyatini rad etib bo‘lmaydi. Ammo oldinga borish jasorat talab qiladi. Hukumat barqaror shaharsozlikni ustuvor qo‘yishi, har bir fuqaro musaffo havo va so‘lim tabiatdan bahramand bo‘lish huquqiga ega ekanini tan olishi shart va zarur. Shu o‘rinda arzon uy-joy loyihalarida yashil hududlar yaratish, binolar atrofiga bog‘lar tashkil qilish yoki mavjud bog‘larni himoya qilish bo‘yicha islohotlar juda muhim hisoblanadi. Jumladan, xususiy sektorlar ham bu loyihalarga o‘z hissalarini qo‘shsa, nur ustiga nur bo‘ladi. Axir tabiatga investitsiya – bu o‘zimizga, demak, foydaga investitsiya emasmi?!

Biz shiddat bilan o‘tayotgan kunlarda, telefonimiz ekraniga tikilgancha, qayergadir shoshayotgan bir paytda, tabiat oddiygina bir haqiqatni shivirlab turadi: sekinlash, biroz tin ol, atrofqa qara va hayotni his qil! Shu bois keyingi safar biror park yoki daraxtlar qatori bo‘ylab o‘tsangiz, birmum to‘xtab, chuqur nafas oling va sement yorig‘idan o‘sib chiqayotgan gulning go‘zalligini ko‘zdan kechiring.

Zero tabiatning bag‘rida biz nafaqat sokinlikni, balki hayot lazmatini ham his qilishimiz mumkin.

Maftuna PARDAYEVA,
TDSHU jurnalistika yo‘nalishi
2-bosqich talabasi



Hayot sabog‘i

Tabiatning KASALMAND JIGARBANDI

Hayot boshi noma‘lum va oxiri ko‘rinmaydigan uzun yo‘lga o‘xshaydi. Eng buyuk donishmandlar ham, eng oddiy insonlar ham uning ta‘rifini o‘zi bosib o‘tgan yo‘l qandayligiga qarab talqin etadi. Ammo barcha uchun ma‘lum haqiqat shuki, hayot tajribali ustoz va ko‘plab tarixiy voqealarning guvohidir. U qaysidir insonlar uchun buyuk ne‘mat bo‘lsa, yana qaysidir insonlar uchun borliqning eng xunuk ko‘rinishi. Bu fikr hayotni shunday ikki xil ko‘rinishda ko‘radigan ko‘zlarga bog‘liqmikin yoki shunday so‘zlayotgan so‘zlargami? Menimcha, bu fikr, umuman, yolg‘on so‘zlashni bilmaydigan qalblarga bog‘liq.

Hech o‘zingizga savol berib ko‘rganmisiz? Bizni o‘rab turgan mo‘jazzina bu olam, ya‘ni tog‘-utoshlar, daryolar, jonivorlar, gilyohlar ham yolg‘on so‘zlashni bilmamikan? Fikrimcha, ular yolg‘on so‘zlashni bilmaydi. Chunki u tabiat. Unda faqatgina borliqning buyuk mavjudoti sanalgan insoniyatga taqdim etish uchun berilgan mehr-muhabbat va saxiylikka to‘lib-toshgan buyuk qalb bor, xolos. Tabiatda insonlarda mavjud bo‘lgani kabi,

qalb va aqlni muvofiqlashtirib turadigan ong yo‘q. Unday bo‘lsa, tabiat faqatgina mehr-muhabbatga to‘la bo‘lgan buyuk mavjudlik xolosmi? Yo‘q, albatta. Unda ham nafrat, alam va qaysidir ma‘noda yovuzlik kabi salbiy hislatlar ham yo‘q emas. U bunday hislarni kuchli to‘fonlar, yer silkinishlari, tog‘ ko‘chkilari ko‘rinishida insonlarga ifoda etadi.

Nega aynan insonlarga? Chunki tabiatning sof qalbiga,

u ulashayotgan mehr-muhabbatga faqatgina insoniyat xiyonat qilishi mumkin. Ammo tabiatning insonlarga berayotgan bu kabi “og‘riqlari” bizda mavjud bo‘lgan birgina illat oldida hech narsa emas. Bu illat shunchalar kuchli, shunchalar ulkanki, uni yo‘q qilish uchun odamlarning aksariyati butun umrini baxshida etadi. Bu illatning nomi – nafs. U kuchli to‘fonlardan ham, buyuk tog‘ ko‘chkilaridan ham muhtasham. Insoniyat nafsining istaklariga bardosh bera olmasdan, “jon taslim qiladigan” tabiat “farzandlari” ham talaygina. Ulardan biri siz-u bizga tegishli bo‘lgan ona zaminimizning bag‘rida joylashgan Orol dengizidir. U tirik. U hamon yashamoqda. Ammo u kasalmand. Hamon insonlarning nafs istagi bilan kurashib kelmoqda.

Holdan toygan Orol dengizi meros talashib, bir-bir bilan “jang” qilayotgan qondosh aka-ukalarni, nafs yo‘lida bironing omonatiga xiyonat qilayotganlarni, begunoh farzandini mehribonlik uyiga tashlab ketayotgan bag‘ritosh ota-onalarni, tanida darmoni, ko‘zlarida nuri tugab

borayotgan ota-onasini qariyalar uyiga olib borayotgan noshud va bemehr farzandlarni ko‘rib, buning ustida qancha ko‘zyosh to‘kdi ekan-a?! Yoki Orol dengizini kasalmand qilib, yer qa‘riga singib, yo‘q bo‘lib ketgan o‘sha moviy to‘lqinlar uning ko‘zyoshi edimi? Nahotki, insoniyatning birgina nafs butun boshli dengizni yo‘q qilib yuborsa! Ha, demak, nafs, haqiqatan ham, to‘fonlar-u ko‘chkilardan, chaqmoqlardan kuchli ekan.

Orol dengizi fojiasi – buyuk mavhumlik va betakror mavjudlikning ulkan to‘qnashuvi. Qiziq, kim g‘olib bo‘larkin? Mavhumlikmi, mavjudlikmi? Fikrimizcha, bu to‘qnashuvning oliy va adolatli hakami – inson. Bu o‘yinda oliy hakamning quroli irodadir. Qurol hamda uning boshqaruvchisi qanchalik kuchli bo‘lsa, mavhumlik, albatta, ortga chekinadi. Agar har birimiz qalbimiz kovaklarini ofiyat yaproqlari ila yamasak, nafsimiz istaklariga qarshi tura olsak, bitta go‘zal mavjudlikni asrab qolishimiz mumkin.

Hayot ham mavjlanib, hapriqib oqadigan dengizga o‘xshaydi. Ammo dengiz qanchalar ulkan va muhtasham bo‘lsa, hayot shunchalar qisqa va shu qadar nozikdir. Shuning uchun hayotni butun boshli dengizdek emas, balki bir tomchi suv kabi qo‘lda tutib turmoq darkor.

Ma‘mura KELDIBEKOVA,
TDSHU 2-bosqich talabasi



Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

HAM KORLIKNING IJOBIY SAMARASI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Yangiyer shahri o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi tomonidan yosh avlod qalbida ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ularni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazish borasida tizimli va samarali ishlar olib borilmoqda.

Bu boradagi
tadbirlar, ayniqsa
O'zbekiston
Respublikasi
Qurolli Kuchlari
tashkil
etilganining
34 yilligi
hamda Vatan
himoyachilari
kuni munosabati
bilan o'tkazilgan
"Vatanparvarlik
oyligi" doirasida yanada
samarali bo'ldi.

Muhim sanaga bag'ishlab, hamkor tashkilotlar ko'magida bir qancha ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari tashkil etildi. – Jumladan, shahar hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan davra suhbatlari, uchrashuv va tematik kechalarda ming nafarga yaqin o'quvchi-yosh ishtirok etdi, – deydi markaz direktori Feruz Xalikov. – Shuningdek, tashkilotimizning harbiy qismlari, Milliy gvardiya, ichki ishlar bo'limlari hamda shahrimizdagi mahallalar bilan ham uzviy hamkorligi muntazam yo'lga qo'yilgan. Bunday hamkorlik natijasida ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doimiy ravishda olib borilyapti. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlamoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kevingi villar mobaynida bevosita

tashkilotning
viloyat kengashi
ko'magida Yangiyer shahri
o'quv sport-texnika markazi NTM
moddiy-texnik bazasi yaxshilandi.
Chunonchi, Respublika Vazirlar
Mahkamasining sohaga doir qarori
asosida zamonaviy talablarga mos
ravishda turli toifali haydovchilar
tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar

olib
borish
uchun o'quv
avtodromi bunyod etildi.
O'quv binosidagi sinfxonalar
ta'mirlanib, zamon talablari
asosida qayta jihozlandi. Amaliy



mashg'ulotlar olib borish uchun o'quv-mashq avtomobillari yangilandi. Bu esa, o'z navbatida, "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash hamda "C", "E" toifalarga qayta tayyorlash va haydovchilar malakasini oshirda qo'l kelmogda.

Bundan tashqari, markazda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli sport to'garaklari ishini yo'lga qo'yish, sport musobaqalarini tashkil etishga ham alohida e'tibor qaratilyapti. Mavjud "Havo milting'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" hamda "Karting" kabi seksiya va to'garaklarda ellik nafarga yaqin iqtidorli yosh muntazam shug'ullanmoqda.

Shuningdek, markazda ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doirasida turli tadbirlar hamda sport musobaqalarini o'tkazib borilishi ham an'anaga aylangan. Shu tufayli sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish rejasiga asosan, shahar miqyosida bir nechta sport musobaqa va bellashuvlari tashkil etildi. Bunda markaz a'zolari va Yangiyer shahridagi umumta'lim maktablaridan saralab olingan o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi.

Akbar ALLAMURODOV



REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Uchinchi Renessans

ILM — YOSHLAR UCHUN IMKONIYATLAR UFQI



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Insoniyat yaralibdiki, o'ziga xos boylik va nufuz mezonlarini izlab keladi. Tarix sahifalariga nazar tashlasak, imperiyalar oltin zaxiralari, keng saroylar va bosib olingan yerlar bilan maqtanib kelganini ko'ramiz. Ammo vaqt deb atalmish buyuk hakam o'z hukmini o'tkazdi: oltinlar tuproqqa qorishdi, muhtasham saroylar xarobaga aylandi. Biroq ming yillar o'tsa-da, qadrini yo'qotmagan, aksincha yildan yilga sayqallanib borayotgan yagona xazina — bu inson tafakkuri.

Oltin faqat qo'lda tutiladigan, moddiy va o'tkinchi ashyo. Tafakkur esa insonni hayvonot olamidani ajratib turuvchi, uni koinot sirlarini anglashga qodir qiluvchi ilohiy qudratdir. Agar inson ongida bilim nuri bo'lmaganida, u na oltinning, na hayotning lazzatini his qila olgan bo'lardi. Ilm o'rganish shunchaki ma'lumotlar yig'indisini xotiraga joylash emas, balki borliqning ichki mohiyatini anglash, sabab va oqibatlar zanjirini kashf etishdir.

Har bir yangi o'rganilgan haqiqat inson qalbida yangi bir quyoshni uyg'otadi. **Jaholat va bilimsizlik — bu ruhning zindoni.** Bu zindonning qulfini ochadigan yagona kalit esa — ma'rifat. Ma'rifatli inson zulmatda adashmaydi, u o'zining va o'zgalarning yo'lini yorituvchi mash'alaga aylanadi. Shu sababli bilim olish bu shunchaki ehtiyoj emas, balki insonning komillikka intilishidagi muqaddas safaridir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlarni kuzatuvchilar haqli ravishda "Sifat inqilobi" deb atamoqdalar. Bu shunchaki balandparvoz gap emas, balki aniq statistik tahlillar bilan isbotlangan haqiqat.

Yetti yil avvalgi manzarani eslaylik: butun mamlakat bo'ylab atigi **77 ta** oliy ta'lim muassasasi bor edi. Minglab yoshlar universitet ostonasiga yetib kelar, lekin "qabul kvotasi" degan tor eshikdan o'ta olmay, ilmga bo'lgan tashnaligini bostirishga majbur bo'lar edi. Bugun esa bu manzara butunlay o'zgardi. Oliy o'quv yurtlari soni **210 tadan** oshdi. Uch barobarlik o'sish — bu shunchaki binolar emas, balki uch barobar ko'p laboratoriyalar, uch barobar ko'p professorlar va eng muhimi, uch barobar ko'p imkoniyatlar demak.

Eng quvonarlisi oliy ta'limga qamrov darajasining 9 foizdan 39 foizga yetganidir. Dunyo tajribasida

bunday keskin sakrash juda kamdan kam kuzatiladi. Bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlar darajasiga yaqinlashayotganimizdan dalolat beradi. Ayniqsa, xotin-qizlar ta'limiga berilayotgan e'tibor — magistratura bosqichida barcha qizlarning kontrakt to'lovlarini davlat o'z zimmasiga olgani — millat genofondini asrash va ilmi onalar safini kengaytirishga xizmat qiladi. Zero bir yigitni o'qitsangiz — bir kishini, bir qizni o'qitsangiz — butun bir oilani, kelajak avlodni o'qitgan bo'lasiz.

Zamonaviy dunyoda iqtidor — bu xomashyo, bilim esa tayyor mahsulot. Xomashyoni mahsulotga aylantirish uchun esa sarmoya kerak. O'zbekistonda yosh iqtidorlarni moliyaviy rag'batlantirish tizimi mutlaqo yangi modelga o'tdi.

Masalan, xalqaro tan olingan **IELTS** yoki **TOEFL** sertifikatlarini olaylik. Ilgari bu imtihonlar uchun to'lanadigan mablag' ko'plab yoshlar uchun katta yuk edi. Bugun esa yuqori ball olgan har bir yoshning xarajatlari davlat tomonidan 100 foiz qaytarib berilmoqda. Bu nima beradi? Bu yoshlarimizga jahon ilm-fan eshiklarini ochadi, ularni dunyo bilan tillashishga o'rgatadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun tashkil etilgan "Yoshlar daftari" tizimi bu adolat mezonidir. Bilimi bor, intilishi bor, lekin moddiy imkoniyati cheklangan yoshning kontraktini davlat to'lab berishi — bu jamiyatda tabaqalanishning oldini oladi. Berilayotgan asbob-uskunalar, tikuv mashinalari yoki kompyuterlar yoshlarning nafaqat iste'molchi, balki yaratuvchi, tadbirkor bo'lishiga xizmat qilmoqda.

"Vatanparvarlik" deganda ko'z o'ngimizda jasur harbiylarimiz g'avdalanadi. Albatta, yurt sarhadlarini asrash — muqaddas burch. Biroq bugun

"axborot urushlari" va "texnologiyalar poygasi" ketayotgan zamonda vatanparvarlik tushunchasi yangi ma'no kasb etdi.

Haqiqiy vatanparvar yosh bu o'z ixtirosi bilan insoniyat mushkulini oson qilgan, bilimi bilan dunyo olimpiadalarida O'zbekiston bayrog'ini yuksaltirgan yoshdir. Dunyo minbarlarida o'zbek tilida ilmiy ma'ruza qilish, xalqaro patentlar egasi bo'lish eng oliy sadoqatdir. Tabiiy boyliklar — gaz, neft yoki oltin qachonlardir tugaydi. Ammo bilim va intellekt qayta tiklanuvchi, yillar o'tgan sari ko'payuvchi boylikdir. Shuning uchun ham bilimga tikilgan har bir so'm — Vatanning mustaqilligini mustahkamlashga qo'shilgan hissa.

Maqola yakunida har bir yosh o'ziga bir savol berishi kerak: "Menga yaratilgan bu imkoniyatlar evaziga men jamiyatga nima bera olaman?" **Zero imkoniyat — bu shunchaki sovg'a emas, bu — zimmangizdagi mas'uliyat.** Davlat sizga eshikni ochib berdi, lekin u ostonadan o'tish va yuksak cho'qqilarni zabt etish — o'z qo'lingizda.

Vaqt — o'ta shafqatsiz va qaytmas ne'mat. Uni behuda ijtimoiy tarmoqlardagi "layk"larga yoki foydasiz o'yinlarga sarflash o'z kelajagingizni o'g'irlashdir. Ilm va bilim esa inson bilan abadiy qoladigan yagona merosdir. Siz o'rgangan har bir harf, har bir formula kelajakda sizni qorong'ilikdan olib chiquvchi nur bo'ladi.

Bugun biz Uchinchi Renessans haqida gapiryapmiz. **Bu Renessansning "g'ishtlari" siz o'qigan kitoblar, yozgan kodlaringiz va qilgan kashfiyotlaringizdan quriladi.** Shunday ekan, vaqtini ilmga aylantiring, imkoniyatni natijaga aylantiring.

Zotan, ma'rifatli millat hech qachon mag'lub bo'lmaydi!

Shodiya XURRAMOVA



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti — "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: leytenant Mansurbek Jabborov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6089

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 088 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz



t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz



vatanparvar-bt@gmail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya